ISSN 218-8088

XALQ TA'LIMI AXBOROTNOMASI

"XALQ TA'LIMI AXBOROTNOMASI" JURNALI

Muassis:
"Xalq ta'limi" jurnali tahririyati DUK

PUBLIC EDUCATION BULLETIN

"PUBLIC EDUCATION BULLETIN" JOURNAL

2023

3-son

(May-Iyun)

Jurnal 2015-yildan chiqa boshlagan

(O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligining 2014-yil 17-maydagi 137-sonli buyrug'i bilan tashkil etilgan)

TOSHKENT

“O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 29-mart-dagi 134-son qarori ijrosi to‘g‘risida”gi **2023-yil 29-martdagi 71-son buyrug‘i** 4

“Xitoy Xalq Respublikasi Hukumatining grant mablag‘lari hisobidan moliyalashtirilishi rejalashtirilgan “5-9-sinflarda “Chet tili” “Informatika” fanlarini o‘qitish sifatini oshirish (2-bosqich)” loyihasini amalga oshi-rish to‘g‘risida”gi **2023-yil 29-martdagi 76-son buyrug‘i**..... 7

“Xalqaro olimpiadalarda ishtirok etadigan O‘zbekiston terma ja-moalari bilan qo‘shimcha mashg‘ulotlar uchun jalb qilinadigan xorijiy trenerlar hamda terma jamoa ishtirokini ta’minlash bilan bog‘liq sarf-xarajatlarni moliyalashtirish to‘g‘risida”gi **2023-yil 03-apreldagi 78-son buyrug‘i**..... 10

“O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining sovrini uchun “Xorijiy tillarni o‘qitish bo‘yicha eng yaxshi maktab” tanlovini tashkil etish to‘g‘risi-da”gi **2023-yil 03-apreldagi 79-son buyrug‘i** 12

“O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirining “Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi tizimidagi ta’lim tashkilotla-rida rasmiy hujjatlarga apostil qo‘yish jarayonini tashkil etish to‘g‘risi-da” 2023-yil 3-martdagi 41-son buyrug‘iga o‘zgartirish kiritish to‘g‘risi-da”gi **2023-yil 12-apreldagi 85-son buyrug‘i** 16

“Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi tizimida shtat birliklari qisqarayotgan xodimlar bilan mehnat munosabatlarini tartibga solish to‘g‘risida”gi **2023-yil 14-apreldagi 93-son buyrug‘i**..... 17

“Mehrli maktab” davlat ta’lim muassasasi hamda uning filiallari faoli-yatini tashkil etishning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi **2023-yil 18-apreldagi 101-son buyrug‘i**..... 19

“2023-2024-o‘quv yilida umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 1-sinfiga qabul jarayonlarini tashkil etish to‘g‘risida”gi **2023-yil 28-apreldagi 109-son buyrug‘i**..... 21

“Maktabgacha va maktab ta’limi vazirining 2023-yil 14-apreldagi 93-son buyrug‘ining ayrim bandlarini o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblash to‘g‘risida”gi **2023-yil 5-maydagi 118-son buyrug‘i** 26

“2021-2022-o‘quv yili yakuni bo‘yicha umumiy o‘rta ta’lim tashkilotlarining kutubxona jamg‘armasidagi darsliklar hamda o‘quv-

metodik qo‘llanmalarni xatlovdan o‘tkazish, ularni hisobdan chiqarish va utilizatsiya qilish to‘g‘risida’’gi **2023-yil 8-maydagi 119-son buyrug‘i**..... 28



‘‘2023-2024-o‘quv yilida umumiy o‘rta ta’lim tashkilotlari uchun chop etiladigan darsliklar va o‘quv-metodik majmualarni tasdiqlash, nashriyot va matbaa korxonalariga taqdim etish, chop etilgan darsliklar va o‘quv-metodik majmualarni qabul qilish hamda umumiy o‘rta ta’lim tashkilotlariga yetkazish tartibi to‘g‘risida’’gi **2023-yil 8-maydagi 120-son buyrug‘i**..... 64



‘‘O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirining 2022-yil 8-noyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi huzuridagi “Ta’minot va logistika xizmati” davlat unitar korxonasining ustavini tasdiqlash haqida”gi 345-son buyrug‘ining ijrosini ta’minlash to‘g‘risida’’gi **2023-yil 15-maydagi 123-son buyrug‘i**..... 82



‘‘Umumiy o‘rta ta’lim maktablari uchun 2023-2024-o‘quv yiliga mo‘ljallangan tayanch o‘quv rejani tasdiqlash to‘g‘risida’’gi **2023-yil 15-maydagi 125-son buyrug‘i**..... 83

‘‘2023-2024-o‘quv yili uchun ta’lim darajasi yuqori bo‘lmagan maktablar ro‘yxatini shakllantirish mezonlarini tasdiqlash to‘g‘risida’’gi **2023-yil 18-maydagi 130-son buyrug‘i**..... 100



‘‘Samarqand viloyati maktabgacha va maktab ta’imi boshqarmasi faoliyatini o‘rganish to‘g‘risida’’gi **2023-yil 29-maydagi 134-son buyrug‘i**..... 102



‘‘2023-yilgi yozgi mavsumda Mehribonlik uylari tarbiyalanuvchilarini dam oldirish va sog‘lomlashtirish ishlarini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida’’gi **2023-yil 29-maydagi 135-son buyrug‘i** 106



‘‘O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirining 2023-yil 3-martdagi “Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi tizimidagi ta’lim tashkilotlarida rasmiy hujjatlarga apostil qo‘yish jarayonini tashkil etish to‘g‘risida”gi 41-sonli buyrug‘iga o‘zgartirish kiritish haqida’’gi **2023-yil 31-maydagi 137-son buyrug‘i** **109**



‘‘O‘zbekiston Respublikasining “Alkogol va tamaki mahsulotlarining tarqatilishini hamda iste’mol qilinishini cheklash to‘g‘risida”gi Qonun ijrosi haqida’’gi **2023-yil 1-iyundagi 144-son buyrug‘i** **110**

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI MAKTABGACHA VA MAKTAB TA’LIMI VAZIRINING BUYRUG‘I

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 29-martdagi 134-son qarori ijrosi to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Gematologiya, onkologiya, klinik immunologiya, boshqa statsionar va uzoq muddatli ambulator davolanishda bo‘lgan bolalarga ta’lim va tarbiya berish tizimini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2023-yil 29-martdagi 134-son qarori ijrosini ta’minlash maqsadida **buyuraman:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 29-martdagi 134-son qarori (keyingi o‘rinlarda-Qaror) vazir o‘rinbosarlari, boshqarma va bo‘limlar, hududiy boshqarmalar boshliqlari, vazirlik tasarrufidagi tashkilotlar va muassasalar direktorlari tomonidan rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Qaror bilan:

gematologiya, onkologiya, klinik immunologiya, boshqa statsionar va uzoq muddatli ambulator davolanishda bo‘lgan bolalar davolanayotgan davlat tibbiyot muassasalarida “Mehrli maktab” davlat ta’lim muassasasining (keyingi o‘rinlarda – Mehrli maktab) yuridik shaxs bo‘lmagan filiallarini (keyingi o‘rinlarda – filiallar) 2023-2028-yillarda bosqichma-bosqich, biroq har yili kamida 3 ta hududda tashkil etilishi;

har bir filialda maktabgacha ta’lim va tarbiyani tashkil etish uchun – har bir guruh uchun tarbiyachi va tarbiyachi yordamchisi, umumiy o‘rta ta’limni tashkil etish uchun – pedagog xodimlar, psixolog (jami 6 ta shtat birligi) lavozimlari joriy etilishi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

3. Moliya-iqtisod departamenti (I.Siradjev) Mehrli maktabda filiallar faoliyatini muvofiqlashtirib borish uchun – Mehrli maktab direktorining filiallar bilan ishlash bo‘yicha o‘rinbosari, xodimlar faoliyatini muvofiqlashtirib borish uchun –1 ta shtat birligidan iborat kadrlar bilan ishlash bo‘yicha inspektor lavozimlarini joriy etsin.

4. Inson resurslarini rivojlantirish boshqarmasi (Z.Togayeva) Mehrli maktab talabnomasiga asosan filiallarni xodimlar bilan ta’minlash choralarini ko‘rsin.

5. Filiallarga malakali o‘qituvchi-pedagoglar va mutaxassislarni (keyingi o‘rinlarda – nomzodlar) saralab olish Mehrli maktab tomonidan e’lon qilingan tanlov (keyingi o‘rinlarda – tanlov) asosida amalga oshirilishi belgilansin.

6. Jamoatchilik va ommaviy axborot vositalari bilan ishlash boshqarmasi (D.Sobirova) Qaror mazmun-mohiyati va tanlovni vazirlikning rasmiy veb-saytida yoritilishini ta’minlasin.

7. Mehrli maktab tomonidan e’lon qilingan tanlov asosida nomzodlar bilan suhbat jarayonini tashkil etish bo‘yicha ishchi guruh (keyingi o‘rinlarda-ishchi guruh) tarkibi ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

8. Ishchi guruh (U.Sharifxodjayev)ga 2023-yilning 15-apreliga qadar:

tanlovga muvofiq nomzodlar ro‘yxatini shakllantirish;

nomzodlar bilan suhbat jarayonini tashkil etish choralarini ko‘rish;

suhbat natijasiga ko‘ra saralab olingan nomzodlar ro‘yxatini tasdiqlash uchun vazirlik rahbariyatiga kiritish vazifalari yuklatilsin.

9. Qoraqalpog‘iston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi, Andijon va Farg‘ona viloyatlari maktabgacha va maktab ta’limi boshqarmalari boshliqlari nomzodlarni belgilangan tartibda suhbatga jalb etish choralarini ko‘rsin.

10. Pedagog kadrlar salohiyatini oshirish va ularni tayyorlaydigan muassasalar faoliyatini muvofiqlashtirish boshqarmasi (N.Kuchkarova), Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti (A.Qirg‘izboyev) 2023-yil 1-oktabrga qadar oliy ta’lim muassasalarining pedagogika ta’lim sohasi yo‘nalishlaridagi o‘quv dasturlariga “Davolash pedagogikasi” modulini kiritish hamda mazkur fanni o‘quv jarayonlariga joriy etish bo‘yicha takliflarni Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligiga taqdim etsin.

11. “Mehrli maktab” davlat ta’lim muassasasi (N.Alimova)ga:

ikki hafta muddatda Mehrli maktabning ustaviga belgilangan tartibda tegishli o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish;

filiallarni tashkil etish va faoliyatini yo‘lga qo‘yish bo‘yicha ishchi guruh ishini muvofiqlashtirish;

tanlov asosida nomzodlar bilan suhbat jarayonini tashkil etish hamda ularni saralash vazifalari yuklatilsin.

12. Devonxona (D.Isxakova) ushbu buyruqni bir kunlik muddatda vazirlikning barcha tarkibiy bo‘linmalari, tasarrufidagi tashkilotlar va

muassasalar hamda hududiy boshqarmalarga yetkazilishini ta’minlasin.

13. Mazkur buyruqning ijrosini nazorat qilish vazirning birinchi o‘rinbosari U.Sharifxodjayev zimmasiga yuklatilsin.

Vazir **X. Umarova**

Toshkent sh.,
2023-yil 9-mart,
71-son

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI MAKTABGACHA VA MAKTAB TA’LIMI VAZIRINING BUYRUG‘I

Xitoy Xalq Respublikasi Hukumatining grant mablag‘lari hisobidan moliyalashtirilishi rejalashtirilgan “5-9-sinflarda “Chet tili” “Informatika” fanlarini o‘qitish sifatini oshirish (2-bosqich)” loyihasini amalga oshirish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Hukumati va Xitoy Xalq Respublikasi Hukumati o‘rtasida 2016-yil 22-iyun sanasida imzolangan hamkorlik kelishuvi asosida Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi va Xitoy Xalq Respublikasi Tijorat vazirligi bilan 2022-yil 7-dekabr kuni imzolangan CHN-UZB (2022) 3-sonli shartnomaga muvofiq “5-9-sinflarda “Chet tili” “Informatika” fanlarini o‘qitish sifatini oshirish (2-bosqich)” loyihasi doirasida O‘zbekistonga yuborilayotgan texnik ko‘mak yuklarini qabul qilib olish, joylarga manzilli yetkazish va o‘rnatish ishlarini tashkil etish maqsadida **buyuraman:**

1. Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi Xitoy Xalq Respublikasi Tijorat vazirligi bilan 2022-yil 7-dekabr kuni imzolagan CHN-UZB (2022) 3-sonli shartnomaga (keyingi o‘rinlarda – shartnoma) muvofiq Xitoyning Jiangsu Sainty Corp., LTD kompaniyasi tomonidan keltiriladigan O‘zbekistonga yuborilayotgan texnik ko‘mak yuklari (keyingi o‘rinlarda – o‘quv kompyuter jihozlari)ni shartnoma shartlariga asosan yuklarni qabul qilish, ta’lim muassasalariga yetkazish hamda o‘rnatish ishlarini tashkil etish vazifasi “Ta’minot va logistika xizmati” davlat unitar korxonasi rahbari U.Suyarov zimmasiga yuklatilsin.

2. Quyidagilar:

umumta’lim muassasalariga yetkazib beriladigan o‘quv kompyuter jihozlari ro‘yxati 1-ilovaga muvofiq;

o‘quv kompyuter jihozlari bilan ta’minlanadigan umumta’lim muassasalari ro‘yxati 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Xalqaro aloqalar va investitsiyalarni jalb qilish bo‘limi (M.Tillayeva) Xitoy tomonidan yuborilgan jihozlar muruvvat yordamiga mansubligi to‘g‘risidagi xulosani olish uchun o‘rnatilgan tartibda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga tegishli axborot kiritsin.

4. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish va raqamlashtirish bo‘limi (R.Musurmonov), “Innovatsiya, texnologiya va strategiya markazi” davlat unitar korxonasi (F.Mirbabayev) **bir hafta muddatda** o‘quv kompyuter jihozlarini umumta’lim muassasalariga

o‘rnatishnrng texnik topshirig‘ini (o‘rnatish uchun zaruriy vositalar bilan birga) ishlab chiqsin hamda tasdiqlagan holda “Ta’minot va logistika xizmati” davlat unitar korxonasiga tegishli davlat xaridlarini amalga oshirish uchun taqdim etsin.

5. “Ta’minot va logistika xizmati” davlat unitar korxonasi (U.Suyarov):

a) shartnomaga asosan keltirilgan o‘quv kompyuter jihozlarini o‘rnatilgan tartibda bojxona hujjatlarini rasmiylashtirgan holda qabul qilib olsin va mazkur buyruqning 2-ilovasida keltirilgan umumta’lim muassasalariga sifatli yetkazib bersin.

Bunda, o‘quv kompyuter jihozlarini qabul qilish bo‘yicha bojxona hujjatlarini rasmiylashtirish va ularni umumta’lim muassasalariga yetkazib berish bilan bog‘liq sarf-xarajatlar (Iqtisodiyot va moliya vazirligi tomonidan tasdiqlangan deklaratsiya narxlari asosida) vazirlikka taqdim etiladi;

b) taqdim etilgan o‘quv kompyuter jihozlarini umumta’lim muassasalariga o‘rnatishning texnik topshirig‘iga asosan hozirgi kundagi bozor konyukturasini (narxlarini) o‘rgangan holda ushbu maqsadlar uchun talab etiladigan mablag‘lar to‘g‘risidagi ma’lumotlarni vazirlikka kiritsin hamda o‘rnatilgan tartibda tegishli davlat xaridlarini amalga oshirsin va buyurtmachi etib belgilansin.

d) o‘quv kompyuter jihozlarini umumta’lim muassasalariga yetkazib, o‘rnatilgunga qadar but saqlanishini ta’minlasin;

e) Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish va raqamlashtirish bo‘limi (R.Musurmonov) bilan birgalikda **2023-yilning 31-avgust** sanasiga qadar o‘quv kompyuter jihozlarini manzilli ro‘yxat asosida joylarga yetkazib berilganligi va o‘quv jarayonida foydalanishga tayyor holga keltirilganligi yuzasidan yakuniy hisobotni vazirlik rahbariyatiga taqdim etsin.

6. Moliya-iqtisod departamenti (I.Siradjev) o‘quv kompyuter jihozlarini bojxonadan olib chiqish, joylarga yetkazib berish va tegishli davlat xaridlarini amalga oshirish uchun talab etiladigan mablag‘larning moliyalashtirish manbalari bo‘yicha vazirlik rahbariyatiga taklif kiritgan holda mablag‘ ajratish choralarini ko‘rsin.

7. Buxgalteriya hisobi va hisoboti bo‘limi (F.Jamuratova)ga:

o‘quv kompyuter jihozlarini o‘rnatilgan tartibda bojxona hujjatlarini rasmiylashtirish va qabul qilib olish uchun “Transport va logistika xizmati” davlat unitar korxonasiga ishonchnoma berish;

“Ta’minot va logistika” davlat unitar korxonasi tomonidan o‘quv kompyuter jihozlarini bojxonadan olib chiqish, joylarga yetkazib berish va tegishli davlat xaridlarini amalga oshirish uchun talab etila-

digan mablag‘lar bo‘yicha taqdim etilgan hisob-kitoblarning to‘g‘riligi va haqqoniyligini ko‘rib chiqish;

moliyalashtirish manbasi aniqlanganidan so‘ng o‘rnatilgan tartibda o‘quv kompyuter jihozlarini yetkazib berish bo‘yicha tuzilgan shartnomaga asosan to‘lovlarni o‘z vaqtida amalga oshirish vazifalari yuklatilsin.

8. Qoraqalpog‘iston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vaziri, Toshkent shahar va viloyatlar maktabgacha va maktab ta’limi boshqarmalari boshliqlari o‘quv kompyuter jihozlarini “Ta’minot va logistika” davlat unitar korxonasidan qabul qilib olish, joylarga manzilli yetkazish va o‘rnatish jarayonida vujudga kelishi mumkin bo‘lgan kamchiliklarni o‘z vaqtida bartaraf etish choralarini ko‘rsin.

9. O‘quv kompyuter jihozlarini sifatli saqlanishi hamda ulardan samarali foydalanishiga ta’lim muassasalari rahbarlarining shaxsiy javobgarligi belgilab qo‘yilsin.

10. Devonxona (D.Isxakova) ushbu buyruqni bir kun muddatda tegishli departament, boshqarma va bo‘limlarga yetkazilishini ta’minlasin.

11. Mazkur buyruqning bajarilishini nazorat qilishni vazir o‘rinbosari T.Komilov zimmasiga yuklatilsin.

Vazir **X. Umarova**

Toshkent sh.,
2023-yil 29-mart,
76-son

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI MAKTABGACHA VA MAKTAB TA’LIMI VAZIRINING BUYRUG’I

Xalqaro olimpiadalarda ishtirok etadigan O‘zbekiston terma jamoalari bilan qo‘shimcha mashg‘ulotlar uchun jalb qilinadigan xorijiy trenerlar hamda terma jamoa ishtirokini ta’minlash bilan bog‘liq sarf-xarajatlarni moliyalashtirish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Iqtidorli yoshlarni aniqlash va yuqori malakali kadrlar tayyorlashning uzluksiz tizimini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2019-yil 3-maydagi PQ-4306-son va Vazirlar Mahkamasining “Iqtidorli o‘quvchilar o‘rtasida fan olimpiadalarini o‘tkazish tizimini takomillashtirish hamda xorijiy tillarni o‘qitish bo‘yicha eng yaxshi maktabni aniqlash tizimini joriy etish to‘g‘risida” 2021-yil 9-sentabrdagi 562-son qarorlari ijrosini, shuningdek, o‘quvchilarning xalqaro fan olimpiadalaridagi muvaffaqiyatli ishtirokini ta’minlash hamda O‘zbekistonning xalqaro maydonda ilm-fan sohasidagi nufuzini oshirish va mustahkamlash maqsadida **buyuraman**:

1. O‘zbekiston terma jamoalarini nufuzli xalqaro olimpiadalardagi muvaffaqiyatli ishtirokini ta’minlash maqsidada xorijiy trenerlar, malakali mutaxassislarni jalb qilgan holda qo‘shimcha o‘quvlar tashkil etish.

2. Xorijiy trenerlarning O‘zbekistonga kelib-ketishi, yashashi, o‘quvchilar bilan o‘tiladigan mashg‘ulotlari bilan bog‘liq sarf-xarajatlar, shuningdek, masofaviy (onlayn) tarzda olib boriladigan mashg‘ulotlar uchun to‘lovlar belgilangan muddatlarda amalga oshirilsin.

3. Xorijiy trenerlarning kelib-ketish sarf xarajatlarini amalga oshirish bo‘yicha mas’ul etib Ixtisoslashtirilgan ta’lim muassasalari agentligi huzuridagi Pedagogik mahorat va xalqaro baholash ilmiy-amaliy markazi (keyingi o’rinlarda – Markaz) belgilansin.

4. Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi huzuridagi Xalq ta’limi sohasidagi islohotlarga ko‘maklashish jamg‘armasi Kengashining Maktabgacha va maktab ta’limi tizimini rivojlantirishga qaratilgan xorijiy trenerlarning kelib-ketishi, yashashi va xizmat haqi kabi sarf xarajatlarni moliyalashtirish hamda Markazga mablag‘ ajratish to‘g‘risida 2023-yil 29-martdagi 109-sonli majlis bayoni ma’lumot uchun qabul qilinsin.

5. Markaz (D.Davidova) Xalq ta'limi sohasidagi islohotlarga ko'maklashish jamg'armasi faoliyatini tashkil etish sho'basiga aviachiptalar hamda mehmonxona

xizmatlari va xorijiy trenerlar bilan o'rnatilgan tartibda shartnomalar tuzib kuchaytirilgan o'quv mashg'ulotlarini tashkil etish bilan bog'liq sarf-xarajatlari uchun zarur bo'ladigan mablag'lar bo'yicha talabnoma taqdim etish vazifalari yuklatilsin.

6. Quyidagilar:

O'zbekiston terma jamoalarining xorijiy trenerlarni jalb qilib, kuchaytirilgan o'quv mashg'ulotlarni tashkil etish sarf xarajatlari smetasi 1-ilovaga;

Xalqaro olimpiadalarda ishtirok etadigan O'zbekiston terma jamoalari uchun belgilangan badal to'lovlari 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

7. Maktabgacha va maktab ta'limi sohasidagi islohotlarga ko'maklashish jamg'armasi hisobidan xorijiy trenerlarning kelib-ketish sarf-xarajatlarini moliyalashtirish uchun ajratilgan mablag'larni xorijiy trenerlarning kelib-ketish sarf xarajatlari doirasida tasdiqlangan xarajatlar smetasiga muvofiq taqdim etilgan talabnomalar asosida Markazga o'tkazsin. Haqiqiy xarajatlardan ortib qolgan mablag' Maktabgacha va maktab ta'limi sohasidagi islohotlarga ko'maklashish jamg'armasi hisobiga qaytarilishi inobatga olinsin.

8. Xorijiy trenerlarning kelib-ketish sarf-xarajatlari yuzasidan Markaz tomonidan amalga oshirilgan ishlarni muvofiqlashtirish bo'yicha mas'ul etib Fan olimpiadalarini o'tkazish va iqtidorli o'quvchilarni saralash boshqarmasi boshlig'i (U.Raxmonov) belgilansin.

9. Buxgalteriya hisobi va hisoboti bo'limi (F.Jamuratova) Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 9-sentabrdagi 562-son qarori bilan tasdiqlangan Umumiy o'rta ta'lim tashkilotlari, akademik litsey va kasb-hunar maktablari o'quvchilari o'rtasida fan olimpiadalarini tashkil etish, o'tkazish hamda xalqaro olimpiadalar ishtirokchilarini saralash va g'oliblarni rag'batlantirish tartibi to'g'risida Nizomning 78-bandiga ko'ra xalqaro olimpiadalarda ishtirok etadigan O'zbekiston terma jamoalari uchun belgilangan badal to'lovlari 2-ilovaga muvofiq amalga oshirilsin.

10. Mazkur buyruqning ijrosini nazorat qilish vazirning birinchi o'rinbosari U.Sharifxodjayev zimmasiga yuklatilsin.

Vazir **X. Umarova**

Toshkent sh.,
2023-yil 03-aprel,
78-son

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI MAKTABGACHA VA MAKTAB TA’LIMI VAZIRINING BUYRUG‘I

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining sovrini uchun “Xorijiy tillarni o‘qitish bo‘yicha eng yaxshi maktab” tanlovini tashkil etish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o‘rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2021-yil 19-maydagi PQ-5117-son hamda Vazirlar Mahkamasining “Iqtidorli o‘quvchilar o‘rtasida fan olimpiadalarini o‘tkazish tizimini takomillashtirish hamda xorijiy tillarni o‘qitish bo‘yicha eng yaxshi maktabni aniqlash tizimini joriy etish to‘g‘risida” 2021-yil 9-sentabrdagi 562-son qarorlari ijrosini ta’minlash maqsadida **buyuraman:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining sovrini uchun “Xorijiy tillarni o‘qitish bo‘yicha eng yaxshi maktab” tanlovi (keyingi o‘rinlarda – Tanlov)da ishtirok etish istagini bildirgan 6 885 ta maktablar Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi axborot tizimida (keyingi o‘rinlarda – axborot tizimi) terma jamoalarini ro‘yxatdan o‘tkazgani va asosiy ko‘rsatkichlarini kiritgani **ma’lumot uchun qabul qilinsin.**

2. Tanlovning birinchi (tuman) bosqichi – 2023-yil 19-aprel kuni, ikkinchi (viloyat) bosqichi – 2023-yil 18-may kuni o‘tkazilsin.

3. Quyidagilar:

Tanlovni tashkil etish bo‘yicha Respublika tashkiliy qo‘mitasi tarkibi 1-ilovaga muvofiq;

Tanlovning birinchi (tuman) va ikkinchi (viloyat) bosqichlarini tashkil etish bo‘yicha tashkiliy qo‘mitalarining namunaviy tarkibi 1a-ilovaga muvofiq;

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining sovrini uchun “Xorijiy tillarni o‘qitish bo‘yicha eng yaxshi maktab” tanlovining birinchi (tuman) va ikkinchi (viloyat) bosqichlarini baholash bo‘yicha yo‘riqnoma tegishlicha 2 va 2a-ilovalarga muvofiq;

Tanlovni tashkil etish va yuqori saviyada o‘tkazishga mo‘ljallangan amaliy tadbirlar rejasi 3-ilovaga muvofiq;

Tanlovning birinchi (tuman) va ikkinchi (viloyat) bosqichlari uchun nazorat materiallarini tayyorlash, chop etish va yetkazish bilan bog‘liq xarajatlar smetasi (keyingi o‘rinlarda – xarajatlar smetasi) tegishlicha 4 va 4a-ilovalarga muvofiq tasdiqlansin.

4. Respublika tashkiliy qo‘mitasi (U.Sharifxodjayev) Tanlovning birinchi (tuman) bosqichi 2023-yil 19-aprel kuni barcha tuman(shahar)larda, tanlovning ikkinchi (viloyat) bosqichi 2023-yil 18-may kuni barcha hududlarda bir vaqtda boshlanishi va bir xil qiyinlikda topshiriqlar berilishini ta’minlasm.

5. Xorijiy tillarni o‘rganishni ommalashtirish boshqarmasi (Sh.Temirova):

2022-yil 10-aprelga qadar hamkor tashkilot va idoralar bilan hamkorlikda, malakali mutaxassislar hamda ekspertlar (zarur hollarda til tashuvchi)ni jalb etgan holda tanlovning tegishli bosqichlari uchun nazorat materiallarini sifatli tayyorlasin;

Tanlov uchun tayyorlangan nazorat materiallarining maxfiyligini ta’minlasin;

Tanlov uchun nazorat materiallarining sifatli chop etilishi va zarur nusxalarda ko‘paytirilishi, to‘g‘ri javoblar orqali shaffof baholanishida amaliy yordam ko‘rsatsin;

Fan olimpiadalarini o‘tkazish va iqtidorli o‘quvchilarni saralash boshqarmasi (U.Raxmonov) va Ta’lim sifatini baholash, litsenziyalash va akkreditatsiyalash departamenti (S.Radjabov) bilan birgalikda Tanlovning birinchi (tuman) va ikkinchi (viloyat) bosqichni o‘tkazishda test sinovlarini adolatli, xolisona va shaffof o‘tkazilishini nazorat qilish bo‘yicha har bir viloyat uchun mas’ul nazoratchilar guruhini shakllantirish va Tanlov vaqtida xizmat safariga yuborish yuzasidan taklif kiritsin.

6. Mazkur buyruqning 4 va 4a-ilovalarida ko‘rsatilgan sarf-xarajatlar vazirlikning 2023-yil uchun markazlashgan tadbirlarning xarajatlar smetasi mablag‘lari doirasida amalga oshirilsin.

7. Buxgalteriya hisobi va hisoboti bo‘limi (F.Jamuratova) va Davlat xaridlarini tashkil etish bo‘limi (Sh.Yeshnazarov) Test sinovlari asosida xorijiy til eng yaxshi o‘qitiladigan maktablarni tumanlar kesimida saralash bo‘yicha Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Bilim va malakalarni baholash agentligi hamda tayyorlangan nazorat materiallarini Qoraqalpog‘iston Respublikasi, Toshkent shahar va viloyatlar markazlariga yetkazib berish uchun Davlat

feldyegerlik xizmati bilan belgilangan tartibda shartnoma tuzsin va xarajatlar smetasi asosida mablag‘larni mazkur shaxslar va tashkilotlar hisob raqamiga o‘tkazib bersin.

8. Qoraqalpog‘iston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi, Toshkent shahar va viloyatlar maktabgacha va maktab ta’limi boshqarmalari:

a) **uch kun muddatda** tanlovning ikkinchi (viloyat) bosqichini tashkil qilish bo‘yicha Tashkiliy qo‘mita tarkibi tasdiqlanishi;

Tanlovda ishtirok etish uchun ro‘yxatdan o‘tgan maktablar to‘g‘risidagi yakuniy ma’lumot, ushbu maktablarga belgilangan tartibda asosiy ko‘rsatkich bo‘yicha qo‘yilgan ballar hamda sinovlarda ishtirok etadigan maktablarning terma jamoalari tarkibi tanlovning birinchi (tuman) bosqichini tashkil qilish bo‘yicha tuzilgan Tashkiliy qo‘mita tomonidan tasdiqlanishi;

Tanlovning birinchi (tuman) bosqichida 1-o‘rinni qo‘lga kiritib, viloyat bosqichida ishtirok etadigan maktablar ro‘yxati tanlovning viloyat bosqichini tashkil qilish bo‘yicha tuzilgan Tashkiliy qo‘mita tomonidan tasdiqlanishini nazorat qilsin;

b) Tanlovning ikkinchi (viloyat) bosqichida ishtirok etadigan maktablar ro‘yxati va terma jamoalar tarkibini tasdiqlash;

Tanlov jarayonini yuqori saviyada o‘tkazilishi uchun barcha choralarni ko‘rish;

Tanlovning ikkinchi (viloyat) bosqichiga oid hujjatlarning **3 yil muddat** saqlanishini ta’minlansin

9. Tuman (shahar) maktabgacha va maktab ta’limi bo‘limlari mudirlari:

uch kun muddatda Tanlovning birinchi (tuman) bosqichini tashkil qilish bo‘yicha Tashkiliy qo‘mita tarkibini tasdiqlasin;

bir hafta muddatda Tashkiliy qo‘mita tomonidan Tanlovda ishtirok etadigan maktablarning yakuniy ro‘yxati tuzilishi va belgilangan tartibda asosiy ko‘rsatkichlari bo‘yicha ooo.uzedu.uz sayti orqali va an’anaviy shaklda taqdim qilingan hujjatlar baholanishini ta’minlasin hamda tanlovda ishtirok etadigan maktablarning terma jamoalari tarkibini tasdiqlasin;

joriy yilning **10-aprel sanasiga qadar** Tanlovning birinchi (tuman) bosqichida ishtirok etgan maktablarga belgilangan tartibda asosiy ko‘rsatkich bo‘yicha qo‘yilgan ballarni asoslovchi hujjatlar yig‘majildini shakllantirsin;

Tanlovning birinchi (tuman) bosqichida ishtirok etadigan o‘quvchilarning Tanlov o‘tkaziladigan joyga xavfsiz kelib-ketishlarini ta’minlasin;

yig‘majild va Tanlov bayonnomasini belgilangan tartibda **3 yil muddat** saqlanishini ta’minlasin.

10. Jamoatchilik va ommaviy axborot vositalari bilan ishlash boshqarmasi (D.Sobirova) Tanlov jarayonlarini ommaviy axborot vositalari hamda ijtimoiy tarmoqlarda keng yoritib borsin.

11. Devonxona (D.Isxakova) bir kun muddatda mazkur buyruqning Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligining hududiy boshqarmalariga yetkazilishini ta’minlasin.

12. Mazkur buyruqning ijrosini nazorat qilish vazirning birinchi o‘rinbosari U.Sharifxodjayev zimmasiga yuklatilsin.

Vazir **X.Umarova**

Toshkent sh.,
2023-yil 03-aprel,
79-son

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI MAKTABGACHA VA MAKTAB TA’LIMI VAZIRINING BUYRUG‘I

O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirining “Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi tizimidagi ta’lim tashkilotlarida rasmiy hujjatlarga apostil qo‘yish jarayonini tashkil etish to‘g‘risida” 2023-yil 3-martdagi 41-son buyrug‘iga o‘zgartirish kiritish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Rasmiy hujjatlarga apostil qo‘yish tartibini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2021-yil 3-dekabrdagi 732-son qarori ijrosini ta’minlash hamda Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi tizimidagi ta’lim tashkilotlarida rasmiy hujjatlarga apostil qo‘yish bo‘yicha tegishli chora-tadbirlarni belgilash maqsadida **buyuraman:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirining “Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi tizimidagi ta’lim tashkilotlarida rasmiy hujjatlarga apostil qo‘yish jarayonini tashkil etish to‘g‘risida” 2023-yil 3-martdagi 41-son buyrug‘ining (keyingi o‘rinlarda Buyruq deb ataladi) 4-bandi quyidagi ikkinchi xatboshi bilan to‘ldirilsin:

“Vazirlik tizimi tashkilotlaridan chiqqan rasmiy hujjatlarga an’anaviy shaklda apostil qo‘yish jarayonida M.Axmedovaning imzosini tasdiqlash uchun vazirlikning rasmiy gerbli muhridan foydalanishga ruxsat berilsin”.

2. Mazkur buyruqning ijrosini nazorat qilishni o‘z zimmamda qoldiraman.

Vazir **X.Umarova**

Toshkent sh.,
2023-yil 12-aprel,
85-son

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI MAKTABGACHA VA MAKTAB TA’LIMI VAZIRINING BUYRUG‘I

Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi tizimida shtat birliklari qisqarayotgan xodimlar bilan mehnat munosabatlarini tartibga solish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Respublika ijro etuvchi hokimiyat organlari faoliyatini samarali yo‘lga qo‘yishga doir birinchi navbatdagi tashkiliy chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2023-yil 25-yanvardagi PF-14-son Farmonida belgilangan vazifalar ijrosini ta’minlash hamda ma’muriy islohotlar doirasida vazirlik faoliyati uzluksizligini ta’minlash, shtat birliklari qisqartirilgan xodimlar bilan mehnat munosabatlarini tartibga solish maqsadida **buyuraman:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasining 2023-yil 29-martdagi topshirig‘i, Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirligining 2023-yil 5-apreldagi 01/00-01/08-2182-son xati ma’lumot va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Topshiriqqa muvofiq:

ma’muriy islohotlar doirasida qayta tashkil etilgan Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi, vazirlik huzuridagi agentliklar va tashkilotlar, hududiy bo‘linmalarning ogohlantirish xati taqdim etilgan xodimlarining mehnat shartnomalarini ish beruvchining tashabbusi bilan bekor qilish jarayonlari vaqtinchalik to‘xtatilsin;

shtat birliklari qisqarayotgan xodimlar bilan mehnat shartnomalarini bekor qilish to‘g‘risidagi ogohlantirish muddatlari uzaytirilganligi inobatga olinsin.

3. Hududiy boshqarmalar vazirlikning hududlarga biriktirilgan vakillari bilan birgalikda boshqarmalar va tuman (shahar) bo‘limlari xodimlarining bandligini ta’minlash yuzasidan:

ogohlantirish muddatini pullik kompensatsiyaga almashtirib, mehnat shartnomalari bekor qilingan xodimlar soni;

qayta tashkil etilayotgan hududiy bo‘linmalarga ishga o‘tkazilgan xodimlar soni;

tizim tashkilotlariga ishga joylashtirilgan xodimlar soni;

taklif etilgan lavozimlarga rozilik bergan va ish bilan ta’minlash jarayonida bo‘lgan xodimlar soni;

takliflarni rad etgan va hozirgi kunda mehnat faoliyatini davom ettirayotgan xodimlar soni to‘g‘risida ma’lumotlarni har kuni soat 17-

00 ga qadar Inson resurslarini rivojlantirish boshqarmasiga taqdim etib borsin.

4. Inson resurslarini rivojlantirish boshqarmasi (Z.Togayeva) hududiy bo‘linmalar xodimlarining bandligi yuzasidan ma’lumotlarni vazirlik rahbariyatiga kiritib borilishini ta’minlasin.

5. Vazirlik huzuridagi agentliklar, Respublika ta’lim markazi, O‘quvchilarni kasb-hunarga yo‘naltirish va psixologik-pedagogik respublika tashxis markazi, Ta’lim sifatini baholashning xalqaro tadqiqotlar milliy markazi, Budjetdan tashqari Respublika maqsadli kitob jamg‘armasi, hududiy boshqarmalar va tuman (shahar) bo‘limlar rahbarlariga:

ma’muriy islohotlar doirasida qayta tashkil etilgan vazirlik huzuridagi agentliklar va tashkilotlar, hududiy bo‘linmalar xodimlarining mehnat shartnomalarini bekor qilish jarayonlarini vaqtinchalik to‘xtatish;

xodimlar bilan mehnat shartnomalarini bekor qilish to‘g‘risidagi ogohlantirish muddatlarini uzaytirish;

hududiy bo‘linmalarda faoliyat ko‘rsatayotgan xodimlarning bandligi ta’minlanganligi haqida ma’lumotlar shakllantirilishida vazirlikning hududlarga biriktirilgan vakillariga ko‘maklashish;

mavjud shtatlarning qisqarishi natijasida bo‘shab qolayotgan xodimlarni ishga joylashtirish choralarini ko‘rish;

hududiy bo‘linmalammg moddiy-texnika bazasini xatlovdan o‘tkazish, faoliyati tugatilayotgan va qayta tashkil etilayotgan balansda saqlovchi hududiy bo‘linmalar tomonidan topshirish-qabul qilish jarayonlarini o‘rnatilgan tartibda rasmiylashtirish vazifalari yuklatilsin.

6. Vazirning birinchi o‘rinbosari – Maktabgacha ta’lim agentligi direktori (A.Shin), vazir o‘rinbosari (T.Komilov), Soha infratuzilmasini rivojlantirish boshqarmasi (Q.Oqilov, D.G‘aniyev, B.Ayubov), Buxgalteriya hisobi va hisoboti bo‘limi (F.Jamuratova) hududiy bo‘linmalarning moddiy-texnika bazasini xatlovdan o‘tkazish, faoliyati tugatilayotgan va qayta tashkil etilayotgan balansda saqlovchi hududiy bo‘linmalar tomonidan topshirish-qabul qilish jarayonlarini o‘rnatilgan tartibda rasmiylashtirilishini nazoratga olsin.

7. Mazkur buyruqning ijrosini nazorat qilishni o‘z zimmamda qoldiraman.

Vazir **X. Umarova**

Toshkent sh.,
2023-yil 14-aprel,
93-son

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI MAKTABGACHA VA MAKTAB TA’LIMI VAZIRINING BUYRUG‘I

“Mehrli maktab” davlat ta’lim muassasasi hamda uning filiallari faoliyatini tashkil etishning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Gematologiya, onkologiya, klinik immunologiya, boshqa statsionar va uzoq muddatli ambulator davolanishda bo‘lgan bolalarga ta’lim va tarbiya berish tizimini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2023-yil 29-martdagi 134-son qarori ijrosini ta’minlash, shuningdek, “Mehrli maktab” davlat ta’lim muassasasi filiallarini tashkil etish maqsadida **buyuraman:**

1. Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 29-martdagi 134-son qaroriga mivofiq quyidagilar amalga oshirilganligi:

Sog‘liqni saqlash vazirligining 2023-yil 11-apreldagi 17-09597-son xati bilan hududlarda “Mehrli maktab” davlat ta’lim muassasasi filiallarini ochish uchun shart-sharoitlar o‘rganilganligi hamda 2023-yilda Farg‘ona va Andijon viloyatlari bolalar ko‘p tarmoqli tibbiyot markazlari hamda Qoraqalpog‘iston Respublikasi tibbiyot instituti klinikasi huzuridagi onkgematologiya bo‘limlarida tashkil etish taklifi bildirilganligi;

“Mehrli maktab” davlat ta’lim muassasasi filiallarini tashkil etish va faoliyatini yo‘lga qo‘yish bo‘yicha ishchi guruhning 2023-yil 12-apreldagi 1-son bayoni bilan 2023-yilda Qoraqalpog‘iston Respublikasi, Farg‘ona va Andijon viloyatlarida Mehrli maktab filiallarini tashkil etish maqsadga muvofiqligi to‘g‘risida qaror qabul qilinganligi;

Sog‘liqni saqlash vazirligining 2023-yil 17-apreldagi 17-10039-son xati bilan Qoraqalpog‘iston Respublikasi, Farg‘ona va Andijon viloyatlarida filiallar faoliyatini boshlashga tayyorligi ma’lum qilinganligi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. Quyidagilar:

Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi huzuridagi “Mehrli maktab” davlat ta’lim muassasasining yangi tahrirdagi ustavi 1-ilovaga muvofiq;

Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi huzuridagi “Mehrli maktab” davlat ta’lim muassasasi filiallarining namunaviy nizomi 2-ilovaga muvofiq;

Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi huzuridagi "Mehrli maktab" davlat ta'lim muassasasi xodimlarining lavozim majburiyatlari 3-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. "Mehrli maktab" davlat ta'lim muassasasi (N.Alimova):

ikki hafta muddatda maktabning ustavini belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilishini, guvohnoma hamda davlat gerbi tasviri tushirilgan va o'z nomi davlat tilida yozilgan muhrga tegishli o'zgartirishlar kiritilishini ta'minlasin.

Qoraqalpog'iston Respublikasi, Farg'ona va Andijon viloyatlarida filiallarni tashkil etish to'g'risida tegishli buyruq qabul qilsin;

Filiallarga yuqori malakali nomzodlarni lavozimga tayinlash choralarini ko'rsin;

4. Qoraqalpog'iston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri, Andijon va Farg'ona viloyatlari maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmalari boshliqlariga tashkil etiladigan "Mehrli maktab" davlat ta'lim muassasasi filiallariga har tomonlama ko'mak ko'rsatish, ularning faoliyatini samarali yo'lga qo'yish vazifasi yuklatilsin.

5. Maktabgacha va maktab ta'limi vazirining ayrim buyruqlariga 4-ilovaga muvofiq o'zgaritirshlar kiritilsin.

6. Devonxona (D.Isxakova) ushbu buyruqni bir kunlik muddatda vazirlikning barcha tarkibiy bo'linmalari, tasarrufidagi tashkilotlar va muassasalar hamda hududiy boshqarmalarga yetkazilishini ta'minlasin.

7. Mazkur buyruqning ijrosini nazorat qilish vazirning birinchi o'rinbosari U.Sharifxodjayev zimmasiga yuklatilsin.

Vazir **X. Umarova**

Toshkent sh.,
2023-yil 18-aprel,
101-son

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI MAKTABGACHA VA MAKTAB TA’LIMI VAZIRINING BUYRUG‘I

2023-2024-o‘quv yilida umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 1-sinfiga qabul jarayonlarini tashkil etish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 11-maydagi PF-134-son qaroriga muvofiq, 1-sinfiga qabul qilishda ota-onalarga qulaylik yaratish uchun bolalarni davlat umumiy o‘rta ta’lim muassasalariga o‘qishga qabul qilish bo‘yicha davlat xizmatini joriy etish maqsadida **buyuraman**:

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 1-iyundagi 295-son qarori bilan:

bolalarni davlat umumiy o‘rta ta’lim muassasalariga qabul qilish hamda o‘quvchilarni bir umumiy o‘rta ta’lim muassasasidan boshqasiga o‘tkazish bo‘yicha davlat xizmatlari ko‘rsatishning ma’muriy reglamenti tasdiqlanganligi;

2023-2024-o‘quv yilida bolalarni umumiy o‘rta ta’lim maktablariga qabul qilish bo‘yicha davlat xizmati (keyingi o‘rinlarda 1-sinfga qabul bo‘yicha davlat xizmati) Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali (my.gov.uz) yoki Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligining elektron davlat xizmatlari portali (my.maktab.uz) orqali amalga oshirilishi;

har yili 20-iyundan - 31-iyulga qadar biriktirilgan mikrohudud doirasida hamda **1-15-avgustga qadar** mikrohududdan tashqari hududlardan 1-sinfga qabul bo‘yicha davlat xizmati ko‘rsatilishi inobatga olinsin.

2. 2023-2024-o‘quv yilida davlat umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 1-sinfiga qabul bo‘yicha davlat xizmati joriy etiladigan tuman va shaharlar ro‘yxati ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Belgilab qo‘yilsinki:

O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuniga muvofiq, umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 1-sinfiga bolalar ular yetti yoshga to‘ladigan (2023-2024-o‘quv yilida 2016-yilning 31-dekabr kunigacha tug‘ilgan) yilda qabul qilinadi;

davlat xizmati joriy etilmagan tumanlardagi umumiy o‘rta ta’lim maktablariga 1-sinfga qabul jarayonlari O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 15-martdagi 140-son qarorida belgilangan tartibda umumiy o‘rta ta’lim maktablari rahbarlari tomonidan amalga oshiriladi (keyingi o‘rinlarda – an’anaviy shaklda) ham-

da maktabga qabul qilingan o‘quvchilar vazirlikning elektron tizimi (adm.maktab.uz)ga kiritiladi;

qabul jarayonlarining ochiqligi va shaffofligini ta’minlash maqsadida bolalarni 1-sinfga qabul qilish bo‘yicha ma’lumotlar (qabul rejasi, qabul vaqtlari, biriktirilgan mikrohudud, davlat tilidan boshqa til bo‘yicha sinflar tanlangan taqdirda, bolaning boshlang‘ich so‘zlashuv ko‘nikmasini baholash bo‘yicha savolnoma) maktab binosining barcha uchun ko‘rinarli joyiga osib qo‘yiladi;

qabul qilish muddati tugagandan so‘ng, umumiy o‘rta ta’lim maktablari tomonidan mikrohudud va mikrohududdan tashqari o‘quvchilar qabul qilinishiga yo‘l qo‘yilmaydi;

umumiy o‘rta ta’lim maktabining 1-sinfiga bolalarni o‘rnatilgan tartibda qabul qilish hamda qabul jarayonlarini shaffof tarzda tashkil etishga **maktab direktori shaxsan javobgar hisoblanadi;**

1-sinf qabul jarayonlarining belgilangan tartibda ochiq va shaffof o‘tkazilishini ta’minlashga tuman (shahar) maktabgacha va maktab ta’limi bo‘limi boshliqlari, qabul jarayonlarni nazorat qilib borishga hududiy maktabgacha va maktab ta’limi boshqarmalari boshliqlari **shaxsan mas’ul hisoblanadi.**

4. Qoraqalpog‘iston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi, Toshkent shahar hamda viloyatlar maktabgacha va maktab ta’limi boshqarmalari (keyingi o‘rinlarda – hududiy boshqarmalar) boshliqlariga:

joriy yilning 15-mayiga qadar umumiy o‘rta ta’lim maktablari qamrovini hisobga olgan holda biriktirilgan mikrohududlarni qayta ko‘rib chiqish hamda tuman (shahar) hokimliklarining qarori bilan tasdiqlanishini ta’minlash;

joriy yilning 25-mayiga qadar umumiy o‘rta ta’lim maktablari tomonidan 1-sinf qabul rejasi hamda tuman (shahar) hokimliklarining qarori bilan biriktirilgan mikrohudud bo‘yicha mahallalar, ko‘cha nomlari va uy raqamlari to‘g‘risidagi yangilangan manzilli ma’lumotlarni elektron platformaga kiritilishini ta’minlash;

joriy yilning 1-iyuniga qadar biriktirilgan mikrohududdagi maktab yoshidagi bolalar soni, umumiy o‘rta ta’lim maktabining o‘quvchi o‘rni (quvvati), pedagoglar bilan ta’minlanganligi va sanitariya talablarini hamda 2023-2024-o‘quv yilida ta’lim tili bo‘yicha darsliklarga berilgan buyurtmalarni inobatga olgan holda 1-sinf qabul rejasini tasdiqlash;

zaruratga ko‘ra, **joriy yilning 5-avgustiga qadar** Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi bilan kelishilgan holda qabul rejasiga o‘zgartirish kiritish;

ota-onalar (ariza beruvchi)ning yashash manzili bo‘yicha biriktirilgan mikrohududdagi umumiy o‘rta ta’lim maktabida tanlagan ta’lim tilidagi sinf bo‘lmagan taqdirda, yaqin hududda joylashgan boshqa umumiy o‘rta ta’lim maktabini elektron platformaga mikrohudud sifatida biriktirish;

tasarrufidagi umumiy o‘rta ta’lim maktablari, hududdagi nodavlat ta’lim tashkilotlari va boshqa vazirlik va idoralar tasarrufidagi maktablarning 1-sinfiga qabul qilingan bolalar haqidagi ma’lumotlarni shu kunning o‘zida vazirlikning elektron tizimi (adm.maktab.uz)ga kiritilishini ta’minlash;

umumiy o‘rta ta’lim maktablariga farzandlarining hujjatlarini topshirish uchun kelgan ota-onalarni elektron navbatda belgilangan muddatda qabul qilinishini tashkil etish;

2023-yil 30-avgustiga qadar 1-sinfga qabul qilingan bolalar uchun 12 nomdagi o‘quv qurollaridan iborat Prezident sovg‘alarini vazirlikning elektron tizimi (adm.maktab.uz)ga kiritilgan bolalar soniga mos ravishda umumiy o‘rta ta’lim maktablariga yetkazib berilishini ta’minlash;

ota-onalar va keng jamoatchilikka umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 1-sinfga qabul qilish tartibi, maktabga qabul qilish yoshi va biriktirilgan mikrohudud doirasida hamda mikrohududdan tashqari qabul to‘g‘risida batafsil tushuntirish ishlarini olib borish;

hududiy boshqarmalar hamda tuman va shahar bo‘limlarida qabul jarayonlarini muvofiqlashtirish bo‘yicha shtab tashkil etilgan holda har bir fuqaro (ota-ona)ning murojaatlarini tezkorlik bilan ko‘rib chiqish;

har bir umumiy o‘rta ta’lim maktablari rahbarlaridan 1-sinfga qabul jarayonlarini shaffof o‘tkazish va qonunbuzarlik (tamagirlik va korrupsiya) holatlariga yo‘l qo‘ymasligini ogohlantirgan holda kafolat xatlarini olish;

yangi o‘quv yiliga samarali tayyorgarlik ko‘rish doirasida maktablarni malakali boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari bilan to‘ldirish choralarini ko‘rish vazifalari yuklatilsin.

5. Umumiy o‘rta ta’lim tashkilotlari faoliyatini muvofiqlashtirish boshqarmasi (E.Murodov) 2023-2024-o‘quv yilida umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 1-sinfiga maktab yoshidagi bolalarni qabul qilish jarayonini muvofiqlashtirib borsin.

6. Maktabgacha ta’lim agentligining Axborot kommunikatsiya texnologiyalari va axborot xavfsizligi boshqarmasi (A.Djurayev), Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish va raqamlashtirish bo‘limi (R.Musurmonov), Innovatsiya, texnologiya va strategiya

markazi (F.Mirbabayev) Umumiy o‘rta ta’lim tashkilotlari faoliyatini muvofiqlashtirish boshqarmasi (E.Murodov) bilan birgalikda joriy yilning 20-mayiga qadar “Xayr bog‘cha-salom maktab!” shiori ostida maktabgacha ta’lim tashkilotlarida tarbiyalanayotgan maktab yoshidagi bolalarni umumiy o‘rta ta’lim maktablariga elektron shaklda qabul qilish uchun tizim yaratsin.

7. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish va raqamlashtirish bo‘limi (R.Musurmonov), Innovatsiya, texnologiya va strategiya markazi (F.Mirbabayev)ga:

2023-yilning 20-may kuniga qadar “Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 1-sinfiga o‘quvchilarni onlayn qabul qilish – my.maktab.uz” elektron platformasini takomillashtirish va Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali, shuningdek, qabul jarayonlari bilan bog‘liq boshqa vazirlik va idoralarning axborot tizimlari bilan integratsiya qilish;

qabul jarayonlarini tizimli tashkil etish hamda foydalanuvchilarni texnik qo‘llab-quvvatlash maqsadida call-markazi hamda onlayn ariza bergan fuqarolarning mikrohudud bo‘yicha yashash manzilini o‘rganish yuzasidan moderatorlar va texnik xodimlar guruhlarini tashkil qilish;

elektron platformadan foydalanish bo‘yicha tizim foydalanuvchilari uchun o‘quv mashg‘ulotlarini o‘tkazish, tizimdan foydalanish bo‘yicha qo‘llanmalar (video, broshura, taqdimot) tayyorlash vazifalari yuklatilsin.

8. Respublika ta’lim markazi (Sh.Sattorov), O‘quvchilarni kasb-hunarga yo‘naltirish va psixologik-pedagogik respublika tashxis markazi (L.Gaynutdinova) bilan birgalikda **joriy yilning 15-may kuniga qadar** umumiy o‘rta ta’lim maktablarida tanlangan ta’lim tili ona tilidan boshqa til bo‘lgan bolalar uchun bolaning boshlang‘ich so‘zlashish ko‘nikmasini baholash bo‘yicha namunaviy savolnomani ishlab chiqsin.

9. O‘quv jarayonini metodik ta’minlash va darsliklar boshqarmasi (D.Norboyeva) **2023-yil 30-avgustga qadar** 2023-2024-o‘quv yilida 1-sinfga qabul qilingan bolalar uchun ta’lim tiliga mos ravishda chop etilgan darsliklarning to‘liq yetkazilishini nazoratga olsin.

10. “Ta’minot va logistika xizmati” davlat unitar korxonasi (O‘.Suyarov) **2023-yil 20-avgustga qadar** 2023-2024-o‘quv yilida 1-sinfga qabul qilingan va vazirlikning elektron tizimi (adm.maktab.uz)ga kiritilgan bolalar soni bo‘yicha 12 nomdagi o‘quv qurollaridan iborat Prezident sovg‘alarini hamda ta’lim tiliga mos ravishda chop etilgan

darsliklarni tuman (shahar) maktabgacha va maktab ta'limi bo'limlariga to'liq yetkazilishini ta'minlasin.

539	2	Nutq o‘stirish	S.Saidazizova va b.	1-sinf	o‘zbek	2020	**215**
540	3	Matematika	M.Toirova va b.	1-sinf	o‘zbek	2020	**205**
541	4	Texnologiya (Qo‘l mehnati)	G.Drazdova va b.	1-sinf	o‘zbek	2020	**190**
			3-sinf				
542	1	Русский язык	R.Shomaxmu-dova va b.	3-sinf	o‘zbek	2019	**180**
543	2	Nutq o‘stirish	S. Saidazizova va b.	3-sinf	o‘zbek	2019	**200**

			4-sinf				
544	1	Русский язык	R.Shomaxmu-dova va b.	4-sinf	o‘zbek	2019	**180**
545	2	Ona tili	VRaxmonova	4-sinf	o‘zbek	2019	**175**
546	3	O‘qish kitobi	M.Xo‘jayeva	4-sinf	o‘zbek	2019	**220**
547	4	Matematika	A.Axatov va b.	4-sinf	o‘zbek	2019	**275**

1-CUH^							
548	1	Буквар	E.Zokirova va b.	1-sinf	rus	2021	**272**
549	2	Математика	M.Toirova va b.	1-sinf	rus	2020	**200**
550	3	Техология (Ручной труд)	G.Drozdova va b.	1-sinf	rus	2020	**191**
551	4	Развитие речи	M .Qaxramo-nova	1-sinf	rus	2020	**190**
3-sinf							
552	1	O‘zbek tili	O.Ergasheva va b.	3-sinf	rus	2019	**180**
553	2	Русский язык	I.Zotova va b.	3-sinf	rus	2019	**180**
554	3	Книга для чтения	A.Fominova va b.	3-sinf	rus	2019	**200**
555	4	Развитие речи	L.Mo‘minova	3-sinf	rus	2019	**184**
556	5	Математика	M.Toirova va b.	3-sinf	rus	2019	**184**
557	6	Техология (Ручной труд)	M.Xamidova va b.	3-sinf	rus	2019	**163**
4-sinf							
558	1	O‘zbek tili	O.Ergasheva va b.	4-sinf	rus	2019	**180**
559	2	Русский язык	N.Miryusupova va b.	4-sinf	rus	2019	**180**
560	3	Книга для чтения	F.Ibragimova va b.	4-sinf	rus	2019	**200**
561	4	Развитие речи	D.To‘laganova	4-sinf	rus	2019	**184**
562	5	Математика	A.Axatov va b.	4-sinf	rus	2019	**278**
563	6	Техология (Ручной труд)	M.Xamidova va b.	4-sinf	rus	2019	**162**
6-sinf							
564	1	Техология	B.Qo‘chqorov va b.	6-sinf	rus	2017	**530**
Ko‘zi ojiz va zaif ko‘ruvchi bolalar maktab, maktab-internatlar uchun							
1-sinf							
565	1	Ona tili (2 qism)	T.G‘afforova va b.	1-sinf	o‘zbek	2017	**2 560**

566	1	O‘qish (2 qism)	T.G‘afforova va b.	1-sinf	o‘zbek	2017	**2 430**
2-sinf							
567	1	Ona tili (4 qism)	I.Azimova va b.	2-sinf	o‘zbek	2017	**4 445**
568	2	O‘qish kitobi (5 qism)	Q.Abdullayeva va b.	2-sinf	o‘zbek	2018	**5 370**
3-sinf							
569	1	Ona tili (4 qism)	S.Fuzailov va b.	3-sinf	o‘zbek	2018	**5 570**
570	2	O‘qish kitobi (5 qism)	M.Umarova va b.	3-sinf	o‘zbek	2018	**5 505**
571	3	Русский язык (4 qism)	R.Talipova va b.	3-sinf	o‘zbek	2018	**3 490**
4-sinf							
572	1	Ona tili (4 qism)	R. Ikromova va b.	4-sinf	o‘zbek	2018	**5 380**
573	2	O‘qish kitobi (5 qism)	S.Matchonov va b.	4-sinf	o‘zbek	2018	**6 635**
5-sinf							
574	1	Ona tili (6 qism)	N.Mahmudov va b.	5-sinf	o‘zbek	2016	**8 020**
575	2	Adabiyot (10 qism)	S.Axmedov va b.	5-sinf	o‘zbek	2015	**9 073**
576	3	Geografiya (4 qism)	M.Quronov va b.	5-sinf	o‘zbek	2017	**4 310**
6-sinf							
577	1	Ona tili (6 qism)	N.Mahmudov va b.	6-sinf	o‘zbek	2016	**7 990**
578	2	Botanika (3 qism)	O‘.Pratov va b.	6-sinf	o‘zbek	2007	**3 315**
7-sinf							
579	1	Ona tili (4 qism)	N.Mahmudov va b.	7-sinf	o‘zbek	2016	**4 910**
580	2	Русский язык (5 qism)	S.Islambekova va b.	7-sinf	o‘zbek	2016	**5 610**

581	3	Informatika va axborot texnologiyasi (3 qism)	B.Boltayev va b.	7-sinf	o‘zbek	2014	**2 825**
8-sinf							
582	1	Ona tili (4 qism)	N.Mahmudov va b.	8-sinf	o‘zbek	2016	**5 600**
583	2	Adabiyot (10 qism)	S.Olimov va b.	8-sinf	o‘zbek	2016	**10 270**
584	3	Informatika va axborot texnologiyalari (5 qism)	B.Boltayev va b.	8-sinf	o‘zbek	2014	**4 900**
585	4	Geografiya (4 qism)	P.Musayev va b.	8-sinf	o‘zbek	2017	**5 500**
586	5	Biologiya (4 qism)	B.Aminov va b.	8-sinf	o‘zbek	2017	**5 415**
9-sinf							
587	1	Konstitutsi-yaviy huquq asoslari (5 qism)	G.Tansiqboye-va va b.	9-sinf	o‘zbek	2017	**5 430**
588	2	Ona tili (3 qism)	N.Mahmudov va b.	9-sinf	o‘zbek	2016	**3 770**
589	3	Adabiyot (10 qism)	S.Olimov va b.	9-sinf	o‘zbek	2016	**8 310**
590	4	Informatika va axborot texnologiyalari (5 qism)	B.Boltayev va b.	9-sinf	o‘zbek	2014	**5 755**
591	5	Biologiya (6 qism)	A.Zikiryayev va b.	9-sinf	o‘zbek	2018	**7 460**
592	6	Iqtisodiy bilim asoslari (5 qism)	E.Sarikov va b.	9-sinf	o‘zbek	2017	**7135**

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI MAKTABGACHA VA MAKTAB TA’LIMI VAZIRINING BUYRUG‘I

2023-2024-o‘quv yilida umumiy o‘rta ta’lim tashkilotlari uchun chop etiladigan darsliklar va o‘quv-metodik majmualarni tasdiqlash, nashriyot va matbaa korxonalariga taqdim etish, chop etilgan darsliklar va o‘quv-metodik majmualarni qabul qilish hamda umumiy o‘rta ta’lim tashkilotlariga yetkazish tartibi to‘g‘risida

Umumiy o‘rta ta’lim tashkilotlari uchun 2023-2024-o‘quv yilida chop etiladigan darsliklar va o‘quv-metodik majmualarning original, tarjima maketlari va signal nusxalarini tasdiqlash, tegishli nashriyot va matbaa korxonalariga taqdim etish, chop etilgan darsliklar va o‘quv-metodik majmualarni belgilangan talablar asosida matbaa sifatini tekshirib, qabul qilib olish hamda qabul qilib olingan darsliklar va o‘quv-metodik majmualarni umumiy o‘rta ta’lim tashkilotlariga yetkazib berilishini ta’minlash maqsadida **buyuraman:**

1. Quyidagilar:

umumiy o‘rta ta’lim tashkilotlari uchun 2023-2024-o‘quv yilida chop etiladigan darsliklar va o‘quv-metodik majmualar (keyingi o‘rinlarda – darsliklar va O‘MM)ni tasdiqlash, nashriyot va matbaa korxonalariga taqdim etish, chop etilgan darsliklar va O‘MMni qabul qilish bo‘yicha yo‘riqnoma 1-ilovaga muvofiq;

umumiy o‘rta ta’lim tashkilotlari uchun 2023-2024-o‘quv yilida chop etiladigan darsliklar va O‘MMning matbaa sifatini tekshirish hamda nashriyot va matbaa korxonalaridan qabul qilish bo‘yicha ekspert guruhi (keyingi o‘rinlarda - darsliklar va O‘MMni qabul qilish bo‘yicha ekspert guruhi) tarkibi 2-ilovaga muvofiq;

2023-2024-o‘quv yilida umumiy o‘rta ta’lim tashkilotlari uchun chop etilgan darsliklar va O‘MMni qabul qilish bo‘yicha ekspert guruhi tomonidan rasmiylashtiriladigan dalolatnoma shakli 3-ilovaga muvofiq;

2023-2024-o‘quv yilida umumiy o‘rta ta’lim tashkilotlari uchun chop etiladigan darsliklar va O‘MMni qabul qilish bo‘yicha ekspert guruhi tomonidan rasmiylashtiriladigan sanoq dalolatnomasi shakli 4-ilovaga muvofiq;

umumiy o‘rta ta’lim tashkilotlarining kutubxona jamg‘armasiga darsliklar va O‘MMni qabul qilish dalolatnomasi shakli 5-ilovaga mu-

vofiq tasdiqlansin.

2. Darsliklar va O‘MMni qabul qilish bo‘yicha ekspert guruhiga:

umumiy o‘rta ta’lim tashkilotlarining kutubxona jamg‘armasi uchun xarid qilinadigan darsliklar va O‘MMni O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Ta’lim muassasalari uchun matbaa mahsulotlari xavfsizligi talablarini belgilashning umumiy texnik reglamentini tasdiqlash to‘g‘risida” 2022-yil 28-dekabrdagi 726-son qarorida belgilangan parametrlarga mos kelishi yuzasidan “O‘zbekekspertiza” AJning muvofiqlik sertifikati mavjudligini tekshirish;

mazkur buyruqning 3- va 4-ilovalari bilan tasdiqlangan dalolatnomalarni o‘rnatilgan tartibda rasmiylashtirish vazifalari yuklatilsin.

3. O‘quv jarayonini metodik ta’minlash va darsliklar boshqarmasi (D.Norboyeva)ga:

darsliklar va O‘MMning sifatini tekshirish va qabul qilish bo‘yicha ekspert guruhi faoliyatini mazkur buyruqning 1-ilovasi bilan tasdiqlangan Yo‘riqnoma asosida tashkil etish;

“Ta’minot va logistika xizmati” Davlat unitar korxonasi (keyingi o‘rinlarda **–** “Ta’minot va logistika xizmati” DUK)ga Qoraqalpog‘iston Respublikasi maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi, Toshkent shahar va viloyatlar maktabgacha va maktab ta’limi boshqarmalarining maktablar kesimida tasdiqlangan taqsimotini o‘z vaqtida taqdim etilishini nazorat qilish vazifalari yuklatilsin.

4. Respublika ta’lim markazi (Sh.Sattarov)ga:

darsliklar va O‘MMning maket va signal nusxalarini nashrga tayyorlash, o‘rnatilgan tartibda tasdiqlash hamda darsliklar va O‘MMning elektron fayllarini chop etish uchun Tender va tanlov savdolarida g‘olib bo‘lgan (yoki to‘g‘ridan-to‘g‘ri shartnoma tuzish asosida chop etadigan) korxonalarga taqdim etish;

Toshkent shahar maktabgacha va maktab ta’limi boshqarmasi (N.Xusanboyeva) bilan hamkorlikda korxonalar tomonidan chop etilgan darsliklar va O‘MMning sifatini tekshirish, o‘z vaqtida qabul qilish uchun Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi tomonidan belgilangan muddatlarda tegishli fan metodistlari va amaliyotchi o‘qituvchilar ishtirokini ta’minlash vazifalari yuklatilsin.

5. “Ta’minot va logistika xizmati” DUK (O‘.Suyarov) darsliklar va O‘MMning hududlarga yetkazilishi bo‘yicha tasdiqlangan taqsimotga asosan vazirlik bilan “Ta’minot va logistika xizmati” DUK o‘rtasida tayyor darslik va O‘MMni matbaa korxonalaridan olib chiqish hamda ta’lim tashkilotlarigacha yetkazish bo‘yicha tuziladigan shartnomani o‘rnatilgan tartibda imzolashga kiritsin.

6. Buxgalteriya hisobi va hisoboti bo‘limi (F.Jamuratova) vazir-

lik va “Ta’minot va logistika xizmati” DUK o‘rtasida tayyor darslik va O‘MMni matbaa korxonalaridan olib chiqish hamda ta’lim tashkilotlarigacha yetkazish bo‘yicha tuzilgan shartnomani g‘aznachilikdan ro‘yxatdan o‘tkazsin hamda o‘rnatilgan tartibda to‘lovlarni amalga oshirsin.

7. “Ta’minot va logistika xizmati” DUK (O‘.Suyarov)ga:

nashriyot-matbaa korxonalarida chop etilib, tayyor holga keltirilgan darsliklar va O‘MMlarni shartnoma asosida olib chiqish, darsliklar hamda O‘MMni “Ta’minot va logistika xizmati” DUKning hududiy bazalariga yig‘ish hamda belgilangan muddatlarda Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligining viloyatlar kesimidagi tasdiqlangan taqsimoti asosida Qoraqalpog‘iston Respublikasi maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi, Toshkent shahar va viloyatlar maktabgacha va maktab ta’limi boshqarmalari hamda barcha ta’lim tashkilotlariga to‘liq va sifatli yetkazish;

darsliklar va O‘MMni nashriyot-matbaa korxonalaridan qabul qilib olingandan keyin o‘rnatilgan tartibda to‘lovlarni amalga oshirish;

matbaa korxonalaridan qabul qilib olingan darsliklar va O‘MMning ta’lim muassasalariga yetkazilishi bo’yicha har kunlik hisobotni vazirlikning O‘quv jarayonini metodik ta’minlash va darsliklar boshqarmasiga taqdim etib borish;

hududiy bazalarga yig‘ilgan 2023-2024-o‘quv yili uchun mo‘ljallangan darsliklar hamda O‘MMni yong‘in xavfsizligiga rioya qilgan holda saqlanishini ta’minlash vazifalari yuklatilsin.

8. Qoraqalpog‘iston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vaziri, Toshkent shahar va viloyatlar maktabgacha va maktab ta’limi boshqarmalari boshliqlariga:

har bir umumiy o‘rta ta’lim tashkilotlarida darsliklar va O‘MMni qabul qilish bo‘yicha komissiya faoliyati tashkil etilishini nazorat qilish;

mazkur buyruq bilan tasdiqlangan yo‘riqnomada belgilangan 2023-2024-o‘quv yilida chop etiladigan darsliklar va O‘MMni qabul qilish tartibini barcha umumiy o‘rta ta’lim tashkilotlarida joriy etilishini qat’iy nazoratga olish;

umumiy o‘rta ta’lim tashkilotlarining darsliklar va O‘MMni qabul qilish komissiyalari tarkibini qayta ko‘rib chiqish, ularning faoliyatini to‘g‘ri tashkil etish, darsliklar va O‘MMni qabul qilishga doir tegishli hujjatlar hamda ma’lumotlar bilan ta’minlash;

belgilangan talablar asosida umumiy o‘rta ta’lim tashkilotlari kutubxonalarida mavjud bo‘lgan darsliklar va O‘MM hamda boshqa adabiyotlarni to‘liq xatlovdan o‘tkazish;

xatlov natijalari hamda o‘quvchilar kontingentini tahlil qilgan holda darsliklar va O‘MMni sinflar, maktablar, tuman (shahar)lar kesimida qayta taqsimlash vazifalari yuklatilsin.

9. Belgilab qo‘yilsinki:

umumiy o‘rta ta’lim tashkilotlarining darsliklar va O‘MMni qabul qilish komissiyalari faoliyatini nazorat qilish, o‘quvchilarni darsliklar bilan to‘liq ta’minlash shaxsan ta’lim tashkiloti rahbari zimmasiga yuklatiladi;

darsliklar va O‘MMni tegishli matbaa korxonalaridan qabul qilish bo‘yicha ekspert guruhi a’zolari belgilangan muddatlarda ish haqi saqlangan holda mazkur buyruq bilan belgilangan vazifalarni amalga oshirish uchun jalb etiladi.

10. Axborot xizmati (D.Sobirova) buyruqning mazmun-mohiyatini keng jamoatchilikka tushuntirib borish maqsadida ijtimoiy tarmoqlar va ommaviy axborot vositalarida muntazam yoritib borsin.

11. Devonxona (D.Isxakova) ushbu buyruqni bir kun muddatda departament, boshqarma va bo‘limlar, hududiy boshqarmalar hamda vazirlik tasarrufidagi muassasalarga yetkazilishini ta’minlasin.

12. Mazkur buyruqning bajarilishini nazorat qilish vazirning birinchi o‘rinbosari U.Sharifxodjayev zimmasiga yuklatilsin.

Vazir **X. Umarova**

Toshkent sh.,
2023-yil 8-may,
120-son

O‘zbekiston Respublikasi
Maktabgacha va maktab ta’limi
vazirining 2023-yil 8-maydagi
120-son buyrug‘iga
1-ILOVA

Umumiy o‘rta ta’lim tashkilotlari uchun 2023-2024-o‘quv yilida chop etiladigan darsliklar va o‘quv-metodik majmualarni tasdiqlash, nashriyot va matbaa korxonalariga taqdim etish, chop etilgan darsliklar va o‘quv-metodik majmualarni qabul qilish bo‘yicha
YO‘RIQNOMA

Mazkur Yo‘riqnoma umumiy o‘rta ta’lim tashkilotlari uchun 2023-2024-o‘quv yilida chop etiladigan darsliklar va o‘quv-metodik majmualar (keyingi o‘rinlarda **–** darsliklar va O‘MM)ning maket hamda signal nusxalarini tasdiqlash, matbaa korxonalariga taqdim etish, chop etilgan darsliklar va O‘MMni nashriyot – matbaa korxonalaridan qabul qilish, shuningdek, umumiy o’rtata’lim tashkilotlariga yetkazish tartibini belgilaydi.

1-bob. Umumiy qoida

1. Darsliklar va O‘MMni tasdiqlash, nashriyot-matbaa korxonalariga taqdim etish, chop etilgan darsliklar va O‘MMni nashriyot hamda matbaa korxonalaridan qabul qilish, ularni umumiy o‘rta ta’lim tashkilotlariga yetkazish quyidagi bosqichlarda amalga oshiriladi:

Respublika ta’lim markazi (keyingi o‘rinlarda **–** RTM) tomonidan darsliklar va O‘MMni **tasdiqlash** va vazirlik tomonidan foydalanishga **tavsiya etish**;

O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi (keyingi o‘rinlarda **–** vazirlik) yoki uning vakolat berilgan tashkilotlari bilan tegishli nashriyot-matbaa korxonalari o‘rtasida tuzilgan shartnomalarda (keyingi o‘rinlarda – shartnoma) belgilangan talablar asosida tayyorlangan darsliklar va O‘MMning matbaa sifatini tekshirib **qabul qilib olish** va umumiy o‘rta ta’lim muassasalariga **yetkazish**;

joylarga yetkazib berilgan darsliklar va O‘MMni umumiy o‘rta ta’lim tashkilotlari tomonidan **qabul qilib olish**.

2. Mazkur yo‘riqnomada quyidagi asosiy tushunchalar qo‘llaniladi:

original maket - ilk nusxa, nashr va qayta nashr etish uchun asos bo‘lgan darslik maketi, boshqa tilga tarjima qilishga asos bo‘lgan matn;

signal nusxa – chop etishga tayyor holga keltirilgan darslikning ilk nusxasi;

texnik tafsilot – darsliklarni chop etishga bo'lgan majburiy o'lcham me'yorlari;

tavsiya etish – ma'qullash;

tasdiqlash – topshiriladigan darsliklarning original va tarjima maketini O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi huzuridagi Respublika ta'lim markazi direktori, birinchi o'rinbosari va o'rinbosarlari, Respublika ta'lim markazining nashr ishlari bo'yicha bo'lim boshlig'i, tegishli fan bo'yicha bo'lim boshliqlari, metodist-mutaxassislari hamda ekspertlar guruhi, muallif(lar), muharrir, musahhih, tarjimon, bosh rassom-dizayner, texnik-muharrir tomonidan ko'rib chiqilib, imzo bilan tasdiqlanishi va vazirlik tomonidan nashrga tavsiya etilishi;

nuqsonli (**brak**) **mahsulot** - darsliklar va O'MMlarning chop etishga qo'yilgan talablar (me'yorlar)ga mos kelmaydigan, foydalanishga yaroqsiz holda tayyorlangan mahsulot.

2-bob. Darsliklar va O'MMni tasdiqlash, nashriyot va matbaa korxonalariga taqdim etish tartibi

3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-noyabrdagi PQ-4884-son va Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 26-fevraldagi 108-son qarorlariga muvofiq Respublika ta'lim markaziga muallif va tuzuvchilarni tanlash hamda darsliklar va o'qituvchilar uchun metodik majmualarning yagona maketlarini yaratish vakolati berilganligini inobatga olib, darsliklar hamda O'MMning (original va tarjima) rangli maketlari RTM tomonidan nashrga tayyorlanib, markazning fan yo'nalishlari bo'yicha Ilmiy-metodik kengash yig'ilishlarida atroflicha muhokamadan o'tkazilib, yig'ilish qarori bilan nashrga tavsiya etiladi. Maketlar RTMning tegishli fan metodistlari, mualliflar, muharrir, musahhih, tarjimon, bosh rassom-dizayner, texnik-muharrirlar tomonidan betma-bet imzolanadi, RTM direktori va uning o'rinbosarlari, nashr ishlari bo'yicha va tegishli bo'lim boshliqlari hamda metodist-mutaxassislari (ekspertlar) tomonidan ko'rib chiqilib, imzolar bilan tasdiqlanadi.

4. RTM o'rnatilgan tartibda **tasdiqlangan maketlarni** vazirlikka rasmiy xat bilan taqdim etadi. Ushbu maketlar vazirlik tomonidan (lozim bo'lganda mutaxassislar jalb etilgan holda) saylanma tarzda ko'rib chiqilishi mumkin, maketlarda xato-kamchiliklar aniqlangan taqdirda, maketlar RTMga qayta ishlash uchun qaytariladi.

5. Darsliklar va O‘MMlarni chop etish uchun vazirlik bilan (to‘g‘ridan- to‘g‘ri) shartnoma tuzadigan (yoki tender, tanlov va auksion savdolari g‘oliblari bo‘lgan) nashriyot-matbaa korxonalariga darsliklar va O‘MMning chop etishga tayyor holdagi elektron (ishchi) fayllari RTM tomonidan taqdim etiladi. (Nashriyot- matbaa korxonalari tomonidan darsliklar va O‘MMning elektron (ishchi) fayllarida mazmunga doir yoki texnik xato-kamchiliklar, nuqsonlar aniqlangan taqdirda, (ishchi) fayllar RTMga rasmiy xat bilan qaytariladi. RTM aniqlangan xato-kamchiliklar, nuqsonlarni o‘z hisobidan bartaraf etilishini ta’minlaydi va korxonaga rasmiy xat bilan chop etishga tayyor holda qayta taqdim etadi.

6. Darsliklar va O‘MMlarni chop etish bo‘yicha shartnoma imzolangan nashriyot-matbaa korxonalari tomonidan darsliklar va O‘MMning 3 dona rangli signal nusxasi tayyorlanib, mazkur Yo‘riqnomaning 3-bandida ko‘rsatilgan tartibda tasdiqlanadi.

7. RTM va nashriyot-matbaa korxonalari tomonidan o‘rnatilgan tartibda tasdiqlangan darsliklar va O‘MMning signal nusxalari vazirlikka taqdim etiladi hamda vazirlikning tegishli boshqarmasi tomonidan chop etishga ruxsat etilib, foydalanishga tavsiya qilinadi.

8. Ushbu tartibda tasdiqlanmagan darsliklar va O‘MMlarni chop etish mumkin emas.

9. Darsliklar va O‘MMlarning o‘quv dasturlariga mosligi, mazmunida va texnik jihatdan xato-kamchiliklar bo‘lmasligiga RTM mas’ul hisoblanadi.

3-bob. Darsliklar va O‘MMni qabul qilib olish va umumiy o‘rta ta’lim tashkilotlariga yetkazish tartibi

10. Darsliklar va O‘MMni shartnomada belgilangan talablar asosida matbaa sifatini va shartnoma shartlarining to‘liq ta’minlanganligini aniqlash maqsadida darsliklar va O‘MMni qabul qilish bo‘yicha ekspert guruhi (keyingi o‘rinlarda - ekspert guruhi) shakllantiriladi.

11. Ekspert guruhi tarkibiga vazirlikning tegishli boshqarma va bo‘limlari xodimlari, RTM va boshqa ta’lim muassasalari mutaxassislari hamda amaliyotchi o‘qituvchilar jalb etiladi.

12. Nashriyot-matbaa korxonalari tomonidan vazirlikka darsliklar va O‘MM tayyor bo‘lganligi haqida yozma ma’lumot taqdim etilganidan so‘ng, uch kun muddat ichida ekspert guruhi yuboriladi.

13. Darsliklarni qabul qilish O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 28-dekabrdagi “Ta’lim muassasalari uchun matbaa mahsulotlari xavfsizligi talablarini belgilashning umumiy texnik reglamentini tasdiqlash to‘g‘risida” 726-son qarorida belgilangan

parametrlarga mos kelishi yuzasidan muvofiqlik sertifikati va bunga mas'ul idora "O'zbekekspertiza" AJ tomonidan berilgan xulosalar asosida amalga oshiriladi.

14. Ekspert guruhi tomonidan darsliklar va O'MMning matbaa hamda butlash sifatini tekshirish mahsulotning tayyor bo'lgan qismi bo'yicha amalga oshiriladi.

15. Ekspert guruhi darsliklar va O'MMning matbaa sifati ko'rsatkichlari bo'yicha tekshirishni darsliklar va O'MMni nashr etish shartnomasida belgilangan talab va texnik tafsilotlar asosida amalga oshiradi va tekshirish natijalari bo'yicha dalolatnomalar 3-ilovaga muvofiq rasmiylashtiriladi.

16. Tanlab olish natijalari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 28-dekabrdagi "Ta'lim muassasalari uchun matbaa mahsulotlari xavfsizligi talablarini belgilashning umumiy texnik reglamentini tasdiqlash to'g'risida" 726-son qarori bilan tasdiqlangan Ta'lim muassasalari uchun matbaa mahsulotlari xavfsizligi talablarini belgilashning umumiy texnik reglamentida belgilangan ta'lim muassasalari uchun bosma mahsulotlarni qabul qilish bo'yicha namuna olish me'yorlariga to'g'ri keladigan darsliklar soni qabul qilib olish sonidan kichik yoki unga teng bo'lsa, darsliklar va O'MM qabul qilinadi, tanlab olish talablariga to'g'ri kelmaydigan darsliklar va O'MM soni nuqsonli (brak) mahsulotlar sonidan ko'p yoki teng bo'lsa yaroqsiz hisoblanadi va partiya qaytariladi.

Darsliklar va O'MMni butlash sifati shartnomada belgilangan talablar asosida tekshiriladi. Bunda, darsliklar va O'MMning bir o'ramdagi miqdori tekshiriladi.

17. Umumiy o'rta ta'lim tashkilotlari uchun chop etiladigan darsliklar va o'quv-metodik majmualarni qabul qilish bo'yicha ekspert guruhi tomonidan rasmiylashtiriladigan sanoq dalolatnomalari 4-ilovaga muvofiq rasmiylashtiriladi.

18. Ekspert guruhining ijobiy xulosasiga asosan tegishli nashriyot-matbaa korxonasi darsliklar va O'MMni vazirlik tomonidan imzolangan shartnoma asosida "Ta'minot va logistika xizmati" Davlat unitar korxonasiga topshiradi.

19. Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligining darsliklar va O'MMni olib ketish to'g'risidagi xatiga asosan "Ta'minot va logistika xizmati" Davlat unitar korxonasi 5 kun muddatda tayyor mahsulotlarni olib chiqadi, 15 kun muddatda taqsimot asosida Qoraqalpog'iston Respublikasi, Toshkent shahar va viloyatlarga hamda 30 kun muddatda barcha ta'lim tashkilotlariga to'liq va sifatli yetkazadi.

20. “Ta’minot va logistika xizmati” Davlat unitar korxonasi tomonidan darsliklar va O‘MM nashriyot-matbaa korxonalaridan qabul qilib olingandan keyin 3 kun muddatda hisob-fakturalarni vazirlikning Moliyalashtirish va buxgalteriya hisobi bo‘limiga, haftada bir marta nashriyot-matbaa korxonalaridan qabul qilib olingan darsliklar va O‘MMning ta’lim tashkilotlariga yetkazilishi bo‘yicha hisobot hamda nashriyot-matbaa korxonalaridan darsliklar va O‘MMni olib chiqish bo‘yicha kunlik ma’lumotni vazirlikning O‘quv jarayonini metodik ta’minlash va darsliklar boshqarmasiga taqdim etib boradi.

21. O‘quv jarayonini metodik ta’minlash va darsliklar boshqarmasi darsliklar va O‘MMning qabul qilinishi va joylarga yetkazilishi yuzasidan ma’lumotlarni tahlil qilgan holda vazirlik rahbariyatiga kiritib boradi.

22. Yetkazib berilgan darsliklar va O‘MMni qabul qilib olish uchun har bir umumiy o‘rta ta’lim tashkilotlarida darsliklar va O‘MMni qabul qilish komissiyasi (keyingi o‘rinlarda - komissiya) tuziladi.

23. Komissiya a’zolari yetti kishidan kam bo’lmagan, toq sondan iborat tarkibda umumiy o‘rta ta’lim tashkiloti direktori, uning o‘quv yoki ma’naviy-ma’rifiy ishlar bo‘yicha o‘rinbosari, umumta’lim tashkilotlari o‘qituvchilari, kutubxonachisi, o‘quvchilarning ota-onalari (qonuniy vakillari) kiritilgan holda maktab direktori buyrug‘i bilan rasmiylashtiriladi.

24. Komissiya a’zolari tomonidan umumiy o‘rta ta’lim tashkilotlariga yetkazilgan darsliklar va O‘MMning bir o‘ramdagi sonini aniqlash, ularning o‘ramini buzmasdan bir chekkasi yirtilgan holda sanab chiqish yo‘li bilan amalga oshiriladi.

25. Darsliklar va O‘MM soni bo‘yicha dalolatnoma mazkur buyruqning 5-ilovasida keltirilgan sanoq dalolatnomasining namunaviy shakli asosida rasmiylashtiriladi.

26. Darsliklarning miqdori tekshirilganidan so‘ng Komissiya a’zolari umumiy o‘rta ta’lim tashkilotlariga qabul qilinayotgan har bir darslikni O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi, Moliya vazirligi, Madaniyat va sport ishlari vazirligi hamda O‘zbekiston matbuot va axborot agentligining 2014-yil 20-martdagi 14, 25, 15qq va 08-05-04-sonli qarori bilan tasdiqlangan (Adliya vazirligida 2014- yil 28-aprelda 2577-son bilan davlat ro‘yxatidan o‘tgan) “Umumta’lim maktablarini darsliklar va O‘MM bilan ta’minlash tartibi to‘g‘risidagi Nizom”ning 13-ilovasiga muvofiq nashr sifati ko‘rsatkichlari va matbaa ijrosi talablariga mosligi bo‘yicha tekshirishni amalga oshiradilar.

27. Agar tekshirish jarayonida birorta darslik yoki O‘MMda kamchilik aniqlansa, ushbu darsliklar yoki O‘MM qabul qilinmasdan

“Ta’minot va logistika xizmati” Davlat unitar korxonasiga uning filiallari orqali tegishli nashriyot-matbaa korxonalariga qaytarib yuboriladi.

28. “Ta’minot va logistika xizmati” DUK nuqsonli (brak) darslik va O‘MMni dalolatnoma asosida tegishli nashriyot-matbaa korxonalariga almashtirib berish uchun qaytarib beradi.

4-bob. Yakuniy qoida

29. Mazkur Yo‘riqnoma talablarini buzgan shaxslarga nisbatan qonun hujjatlarida belgilangan tartibda javobgarlikka tortish choralari ko‘riladi.

30. Ushbu Yo‘riqnomada aks ettirilmagan masalalar yuzasidan vujudga kelgan muammoli vaziyatlar amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq hal etiladi.

O‘zbekiston Respublikasi
Maktabgacha va maktab ta’limi
vazirining 2023-yil 8-maydagi
120-son buyrug‘iga
2-ILOVA

Umumiy o‘rta ta’lim tashkilotlari uchun 2023-2024-o‘quv yilida chop etiladigan darsliklar va o‘quv-metodik majmualarning matbaa sifatini tekshirish hamda nashriyot-matbaa korxonalaridan qabul qilish bo‘yicha ekspert guruhi
TARKIBI
(Namunaviy shakli)

1-Ekspert guruhi tarkibi
(*umumta’lim maktablari uchun)*

T/r	Lavozimi
1.	Vazirlikning O‘quv jarayonini metodik ta’minlash va darsliklar boshqarmasi xodimi, guruh rahbari
2.	Respublika ta’lim markazining tegishli fan yo‘nalishi bo‘yicha metodisti, a’zo
3.	Respublika ta’lim markazining metodisti, a’zo
4.	Amaliyotchi o‘qituvchi, a’zo
5.	“Ta’minot va logistika xizmati” DUK darsliklar bo‘yicha mutaxassisi, a’zo

2- Ekspert guruhi tarkibi
(Alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalar maktab va maktab-internatlari uchun)

T/r	Lavozimi
1.	Vazirlikning O‘quv jarayonini metodik ta’minlash va darsliklar boshqarmasi xodimi, guruh rahbari
2.	Respublika ta’lim markazi Inklyuziv va maxsus pedagogika bo‘limi metodisti, a’zo
3.	Respublika ta’lim markazining metodisti, a’zo
4.	Amaliyotchi o‘qituvchi, a’zo
5.	“Ta’minot va logistika xizmati” DUK darsliklar bo‘yicha mutaxassisi, a’zo

Izoh: *Bir nechta nashriyot-matbaa korxonalarida bir paytda darsliklarni qabul qilish kerak bo‘lgan hollarda qo‘shimcha ravishda 2 yoki 3 ta ekspert guruhlari tashkil etiladi.*

Nashriyot-matbaa korxonalarida chop etilgan darsliklar va O‘MMlarni ta’lim tillari, sinfi, nomi va soniga qarab ekspert guruhi tarkibiga qo‘shimcha ravishda mutaxassislar kiritilishi mumkin.

O‘zbekiston Respublikasi
Maktabgacha va maktab ta’limi
vazirining 2023-yil 8-maydagi
120-son buyrug‘iga
3-ILOVA

2023-2024-o‘quv yilida umumiy o‘rta ta’lim tashkilotlari uchun chop etilgan darsliklar va o‘quv-metodik majmualarni qabul qilish bo‘yicha ekspert guruhi tomonidan rasmiylashtiriladigan dalolatnomasi

2023-yil ___- .

Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligining Darsliklarni qabul qilish bo‘yicha ekspert guruhi a’zolari:

_____

bir tomondan Ijrochining vakillari:

ikkinchi tomondan 2023-yil

“ ” da*(nashriyot yoki bosmaxona nomi)*

bilan imzolangan -sonli shartnomasiga asosan tayyorlangan mahsulot sifati

tekshirish haqida ushbu dalolatnomani tuzdilar:

1. “O‘zbekekspertiza” AJ tomonidan berilgan 2023-yil dagi ___-sonli muvofiqlik

sertifikati

2. Umumiy ma’lumot:

T/r	Darslik va o‘quv-metodik majmualar nomi	Buyurtma raqami	Nashr nusxasi	Tekshirilgan mahsulot nusxasi

3. Butlash sifati va mahsulot miqdori:

Darslik va o‘quv-metodik majmualar nomi	Bir o‘ramda bo‘lishi zarur bo‘lgan darsliklar soni	Tekshiruv natijasidagi ko’rsatkichlar	O‘ramning sifati

4. Tayyor mahsulotning sifati bo‘yicha e’tirozlar:

T/r	Nuqson va kamchiliklar nomi	Kamchiliklar mavjudligi	Kamchiliklar mavjud mahsulot soni
1.	Ranglarning aniq ajratilmaslik holatlari		

2.	Teskari boʻlib qolgan, oʻtkazib yoki chalkashtirib yuborilgan sahifalar, ulardagi sarlavhalar, harflar va belgilar, matn yoki illyustratsiyalarning teskari joylashib qolishi, daftarlardagi betlarning notoʻgʻriligi		
3.	Blok elementlarining butlanmaganligi, ketma-ket emasligi, begona, teskari, chalkashib ketganligi, ortiqcha va yetmay qolgan varaqlar, ilovalar, orasiga yopishtirilgan qogʻozchalar mavjudligi		
4.	Chop etilmagan sahifalar mavjudligi, maqsadli qoldirilgan oq sahifalar bundan mustasno		
5.	Blokdagi matn yozuvlari va illyustratsiyadagi nuqsonlarga (tasvir elementlarini tushirib qoldirish), “oqarib qolgan muhr”, boʻyoq purkash, surkalib ketishi, boʻyoq yigʻilib qolgandagi dogʻlari, izlar, qatma-qat muhrlar, makulatura qogʻozlari holati		
6.	Muqova va muqova jildidagi illyustratsiyalar yoki yozuvlardagi nuqsonlar: boʻyoq surkalishi, folgada tasvir elementlarini oʻtkazib yuborish holati		
7.	Sahifadagi illyustratsiyalar yoki matn boʻlaklarini tushirib qoldirish (“kesib” tashlangan matn, hoshiya yoki illyustratsiyalar)		
8.	Muqova yoki muqova jildiga blokni notoʻgʻri qoʻyish: blok teskari qoʻyilganligi, “begona” blok qoʻyilganligi		
9.	Muqova jildi chegarasidan blokning surilib chiqish holati		
10.	Mexanik shikastlar: muqova, muqova jildi, betlarning yirtilganligi yoki iflosligi		
11.	Tasmalarni bosib chiqishdagi nuqsonlar, tasmalarning qavatma-qavatligi va oʻpirilishi		
12.	Blok elementlarining tushib qolishiga olib keladigan nuqsonlar: bloklarda tikilmay qolgan betlar mavjudligi, blok yorilishi, halqaning tushib qolish holati		
13.	Muqovadan yoki muqova jildidan blokning tushib qolish holati		
14.	Blok, muqova jildi shaklining oʻzgarishi		

15.	Darsliklar va O‘MM varaqlaridan unumli foydalanmaslik, katta hoshiyalar tashlash		
16.	Materialning xira chop etilishi		
17.	Noto‘g‘ri falsovka qilinishi		
18.	Muqova uchun ishlatiladigan qog’ozning eniga qarab bichilishi		
19.	Blokning ichkarisiga yoki chetiga yelim tomizib yuborilishi, betlarni qayta yelimlash va matnning buzilishi yoki illyustratsiyalarni olib tashlash holati		
20.	Forzasning blokdan butun sahifa bo‘yicha yelimlanmasdan qolishi, forzasning egilishida uzilib qolish holati		
21.	Koreshokning kitob blokiga yelimlanish jarayonida yelimning bir tekisda surilmasligi va natijada koreshokning yirtilishi hamda g‘ijimlanishi		
22.	Yelimning belgilangan miqdordan oshib ketishi		
23.	Plyonkaning muqovaga to‘liq pripressovka qilinmasligi		
24.	Bigovkaning to‘liq yoki qisman yelimlanmaslik holatlari		
25.	Burchaklarning 90 gradus ostida to‘g‘ri qirqilmasligi va o’tmas uskuna yordamida qirqilganligi uchun kitobning chetlari tekis bo‘lmaslik holatlari		
26.	Bigovkaning belgilangan o‘lchamda qo‘yilmaganligi yoki umuman yo‘qligi		
27.	Matn blokida qisman yirtilish va g‘ijimlanish holatining mavjudligi		
Jami aniqlangan kamchiliklar:			

Ekspert guruhi a’zolari, F.I.SH.
Tegishli nashriyotlar yoki matbaa korxonalari vakillari, F.I.SH.

O‘zbekiston Respublikasi
Maktabgacha va maktab ta’limi
vazirining 2023-yil 8-maydagi
120-son buyrug‘iga
4-ILOVA

2023-2024-o‘quv yilida umumiy o‘rta ta’lim tashkilotlari uchun chop etiladigan darsliklar va o‘quv-metodik majmualarni qabul qilish bo‘yicha ekspert guruhi tomonidan rasmiylashtiriladigan sanoq dalolatnomasi

2023-yil

Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligining Darsliklarni qabul qilish guruhi a’zolari:

bir tomondan Ijrochining vakillari:

ikkinchi tomondan “Ta’minot va logistika xizmati” DUK ning 2023-yil “ ”

da (nashriyot yoki bosmaxona nomi)

bilan imzolangan -sonli shartnomasiga asosan tayyorlangan mahsulot sonini tekshirish haqida ushbu dalolatnomani tuzdilar:

Haqiqatdan ham 2023-yil kuni

(nashriyot yoki matbaa korxonasi nomi)

ombori tekshirilganda quyidagi mahsulot bog‘lamlarga olingan holda tayyorligi aniqlandi:

T/r	Darslik nomi	Sinfi, ta’lim tili	Soni	Bir dona darslik og‘irligi (gramm)	Shartnoma raqami	Muvofiqlik sertifikati raqami, sanasi

Umumiy o‘rta ta’lim tashkilotlarining darsliklar va o‘quv-metodik majmualarni qabul qilish komissiya a’zolari tomonidan jami nomda nusxa darsliklar partiyasi

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 28-dekabrdagi “Ta’lim muassasalari uchun matbaa mahsulotlari xavfsizligi talablarini belgilashning umumiy texnik reglamentini tasdiqlash to‘g‘risida” 726-son qarori bilan tasdiqlangan Ta’lim muassasalari uchun matbaa mahsulotlari xavfsizligi talablarini belgilashning

umumiy texnik reglamentida belgilangan parametrlarga mos kelishi aniqlandi.

“O‘zbekekspertiza” AJ tomonidan berilgan 2023-yil dagi ___-sonli muvofiqlik sertifikati ilova qilinadi.

Ekspert guruhi a’zolari, F.I.SH.	**Imzo**
Tegishli nashriyot yoki matbaa korxonalari vakillari, F.I.SH.	**Imzo**

O‘zbekiston Respublikasi
Maktabgacha va maktab ta’limi
vazirining 2023-yil 8-maydagi
120-son buyrug‘iga
5-ILOVA

U

mumiy o‘rta ta’lim tashkilotlarining kutubxona jamg‘armasiga darsliklar va o‘quv-metodik majmualarni qabul qilish DALOLATNOMASI*

tuman (shahar) 2023-yil

bir tomondan tumani (shahri)dagi -sonli umumiy o‘rta ta’lim maktabining darsliklar va o‘quv-metodik majmualarni qabul qilish komissiyasi a’zolari: ikkinchi tomondan “Ta’minot va logistika xizmati” Davlat unitar korxonasi hududiy filiali xodimlari: 2023-yil “___” da umumiy o‘rta ta’lim maktabiga yetkazilgan darsliklar va o‘quv-metodik majmualarning soni va sifatini tekshirib, qabul qilish haqida ushbu dalolatnomani tuzdilar: Haqiqatdan ham 2023-yil kuni “Ta’minot va logistika xizmati” Davlat unitar korxonasi hududiy filiallari tomonidan quyidagi darsliklar va o‘quv-metodik majmualarni ___-sonli umumiy o‘rta ta’lim maktabiga yetkazilganligi aniqlandi:

T/r	**Darslik nomi**	**Sinfi**	**Ta’lim tili**	**Soni**
Umumiy o‘rta ta’lim maktabining darsliklar va O‘MMni qabul qilish komissiyasi a’zolari, F.I.SH.				**Imzo**
“Ta’minot va logistika xizmati” Davlat unitar korxonasi hududiy filiali xodimlari, F.I.SH.				**Imzo**

**Izoh: Qabul qilish komissiyasi nuqsonli (brak) darslikva O‘MMlarni almashtirib berish uchun “Ta’minotva logistika xizmati” DUKning hududiy filialiga dalolatnoma asosida qaytarib beradi. “Ta’minot va logistika xizmati” DUKning hududiy filiali nuqsonli (brak) darslikva O‘MM larni maktabdan olib ketadi va tegishli nashriyot-matbaa korxonasiga yetkazib, nuqsonsiz darslikva O‘MMlarga almashtirib berilishini ta’minlaydi.*

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI MAKTABGACHA VA MAKTAB TA’LIMI VAZIRINING BUYRUG‘I

O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirining 2022-yil 8-noyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi huzuridagi “Ta’minot va logistika xizmati” davlat unitar korxonasining ustavini tasdiqlash haqida”gi 345-son buyrug‘ining ijrosini ta’minlash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirining 2022-yil 8-noyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi huzuridagi “Ta’minot va logistika xizmati” davlat unitar korxonasining ustavini tasdiqlash haqida”gi 345-son buyrug‘ining ijrosini ta’minlash maqsadida **buyuraman:**

1. “Ta’minot va logistika xizmati” davlat unitar korxonasining 2023-yilga mo‘ljallangan “Biznes rejasi va faoliyati samadorligining muhim ko‘rsatkichlari (SMK)”ni kelishish va tasdiqlash bo‘yicha ishchi guruh *(*keyingi o‘rinlarda — Ishchi guruh) tarkibi ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

2. Ishchi guruhga:

“Ta’minot va logistika xizmati” davlat unitar korxonasining 2023-yilga mo‘ljallangan “Biznes rejasi va faoliyati samadorligining muhim ko‘rsatkichlari (SMK)”ni amaldagi qonunchilikda belgilangan tartibda ko‘rib chiqib kelishib berish;

har chorakda uning bajarilishi haqidagi hisobotini o‘rganib chiqib, natijasi bo‘yicha vazirlik rahbariyatiga ma’lumot kiritish vazifasi yuklatilsin.

3. “Ta’minot va logistika xizmati” davlat unitar korxonasi (O‘.Suyarov) har yili 1-yanvarga qadar tashkilotning “Biznes rejasi va faoliyati samadorligining muhim ko‘rsatkichlari (SMK)”ni kelishish uchun hamda har chorakda uning bajarilishi haqidagi hisobotini Ishchi guruhga kiritilishini ta’minlasin.

4. Devonxona (D.Isxakova) mazkur buyruqni “Ta’minot va logistika xizmati” davlat unitar korxonasiga yetkazilishini ta’minlasin.

5. Mazkur buyruqning ijrosini nazorat qilish vazir o‘rinbosari T.Komilov zimmasiga yuklatilsin.

Vazir **X. Umarova**

Toshkent sh.,
2023-yil 15-may,
123-son

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI MAKTABGACHA VA MAKTAB TA’LIMI VAZIRINING BUYRUG‘I

Umumiy o‘rta ta’lim maktablari uchun 2023-2024-o‘quv yiliga mo‘ljallangan tayanch o‘quv rejani tasdiqlash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentabrdagi “Ta’lim to‘g‘risida”gi 637-son Qonuni va Vazirlar Mahkamasining “Umumiy o‘rta ta’lim to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida” 2017-yil 15-mart-dagi 140-son qarori va Prezident Administratsiyasining 2023-yil 27-apreldagi 08-740-sonli topshirig‘iga muvofiq, umumta’lim fanlarini o‘qitishning uzluksizligi va izchilligini ta’minlash hamda umumiy o‘rta ta’lim maktablari uchun tayanch o‘quv rejani tasdiqlash maqsadida **buyuraman:**

1. Quyidagilar:

ta’lim o‘zbek tilida olib boriladigan umumiy o‘rta ta’lim maktablari uchun 2023-2024-o‘quv yiliga mo‘ljallangan tayanch o‘quv reja va tushuntirish xati 1-ilovaga muvofiq;

ta’lim rus va qardosh tillarida olib boriladigan umumiy o‘rta ta’lim maktablari uchun 2023-2024-o‘quv yiliga mo‘ljallangan tayanch o‘quv reja va tushuntirish xati 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

2. Joriy o‘quv yilidan boshlab, umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 1-sinfida “Informatika va axborot texnologiyalari” fani joriy etilsin.

3. Qoraqalpog‘iston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi (A.Narimbetov) hududidagi umumiy o‘rta ta’lim maktablari uchun 2023-2024-o‘quv yiliga mo‘ljallangan tayanch o‘quv rejasini ishlab chiqsin hamda O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi bilan kelishilgan holda tasdiqlasin.

4. Respublika ta’lim markazi (Sh.Sattarov)ga:

bir oy muddatda tayanch o‘quv reja asosida tegishli taqvim-mavzu rejalarini ishlab chiqish;

bir hafta muddatda 1-sinf “Informatika va axborot texnologiyalari” fanini o‘qitish metodikasi, o‘quv dasturi, davlat ta’lim standartlari va taqvim-mavzu rejalarini amaliyotga tatbiq etish bo‘yicha vazirlikka taklif kiritsin.

5. A.Avloniy nomidagi pedagoglarni kasbiy rivojlantirish va yangi metodikalarga o‘rgatish milliy-tadqiqot institutiga:

boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari uchun 1-sinf “Informatika va axborot texnologiyalari fani”ni zamonaviy metodikalar asosida o‘qitish va

o‘rgatish bo‘yicha qisqa muddatli o‘quv kurslarining dasturini ishlab chiqish;

umumiy o‘rta ta’lim maktablaridagi 1-sinf “Informatika va axborot texnologiyalari” fanini o‘qitadigan boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini qisqa muddatli o‘quv kurslariga qamrab olish grafigini ishlab chiqish va tasdiqlash;

2023-yilning 25-avgustiga qadar boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari uchun “Informatika va axborot texnologiyalari” fanining mazmun-mohiyati bo‘yicha qisqa muddatli o‘quv kurslarining samarali tashkil etilishini muvofiqlashtirish;

o‘quv kurslarini muvaffaqiyatli yakunlagan o‘qituvchilarga sertifikat berilishini ta’minlash vazifalari yuklatilsin.

6. Hududiy pedagoglarni yangi metodikalarga o‘rgatish milliy markazlari A.Avloniy nomidagi pedagoglarni kasbiy rivojlantirish va yangi metodikalarga o‘rgatish milliy-tadqiqot instituti tomonidan ishlab chiqilgan qisqa muddatli o‘quv kurslari bo‘yicha dastur asosida 1-sinf “Informatika va axborot texnologiyalari” fanini o‘qitadigan boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining o‘quvini tashkil etsin.

7. Qoraqalpog‘iston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vaziri, Toshkent shahar va viloyatlar maktabgacha va maktab ta’limi boshqarmalari boshliqlariga:

umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 1-sinfida “Informatika va axborot texnologiyalari” fani joriy qilinishi munosabati bilan boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari uchun tashkil etiladigan qisqa muddatli o‘quv kurslarida ishtirok etishlarini ta’minlash;

2023-2024-o‘quv yili davomida umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida tayanch o‘quv reja va uning tushuntirish xatida belgilangan vazifalarning bajarilishini muvofiqlashtirish;

umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida 2023-2024-o‘quv yiliga mo‘ljallangan tayanch o‘quv rejadan kelib chiqqan holda muassasa xodimlarining ish yuklamalari tarifikatsiyasi va dars jadvallarining ishlab chiqilishi bo‘yicha tushuntirish ishlarini olib borish;

2023-yilning 30-avgustiga qadar 2023-2024-o‘quv yiliga mo‘ljallangan tayanch o‘quv rejadagi yangiliklar va tushuntirish xatining mazmun-mohiyatini har bir ta’lim muassasasiga yetkazish hamda pedagogik kengash yig‘ilishlarida targ‘ibot ishlarini tashkil etish vazifalari topshirilsin.

8. Umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida tayanch o‘quv rejani bajarish va natijalarini tahlil etib borish ishlariga hududiy maktabgacha va maktab ta’limi boshqarmalari hamda ta’lim muassasalari rahbarlari shaxsan mas’ul etib belgilansin.

9. Mazkur buyruq qabul qilinishi munosabati bilan, O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirining 2021-yil 24-dekabrdagi “Umumiy o‘rta ta’lim maktablari uchun 2022-2023-o‘quv yiliga mo‘ljallangan tayanch o‘quv rejani tasdiqlash to‘g‘risida”gi 414-sonli buyrug‘i 2023-yil 1-iyuldan boshlab o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblansin.

10. Mazkur buyruqning ijrosini nazorat qilish vazirning birinchi o‘rinbosari U.Sharifxodjayev zimmasiga yuklatilsin.

Vazir **X.Umarova**

Toshkent sh.,
2023-yil 15-may,
125-son

O‘zbekiston Respublikasi
Maktabgacha va maktab ta’limi
vazirining 2023-yil 15-maydagi
125-son buyrug‘iga
1-ILOVA

Ta’lim o‘zbek tilida olib boriladigan umumiy o‘rta ta’lim maktablari uchun 2023-2024-o‘quv yiliga mo‘ljallangan tayanch o‘quv reja

T/r	Fan yo‘nalishlari va nomlari	Haftalik o‘quv soatlari (sinflar kesimida)											Haftalik umumiy soat
		1	*2*	*3*	*4*	*5*	*6*	*7*	*8*	*9*	*10*	*11*	
I.	**Filologiya fanlari**	**10**	**11**	**11**	**11**	**11**	**11**	**10**	**10**	**10**	**9**	**9**	**113**
1	Ona tili va adabiyot	8	7	7	7	6	6	5	5	5	4	4	**64**
2	Rus tili		2	2	2	2	2	2	2	2	2	2	**20**
3	Chet tili	2	2	2	2	3	3	3	3	3	3	3	**29**
II.	**Ijtimoiy fanlar**	**1**	**1**	**1**	**1**	**3**	**3**	**4**	**5**	**5**	**4**	**4**	**32**
4	Tarix					2	2	3	3	3	2	2	**17**
5	Davlat va huquq asoslari								1	1	1	1	**4**
6	Tarbiya	1	1	1	1	1	1	1	1	1	1	1	**11**
III.	**Aniq fanlar**	**6**	**5**	**5**	**5**	**6**	**6**	**6**	**6**	**7**	**7**	**7**	**66**
7	Matematika	5	5	5	5	5	5	5	5	5	5	5	**55**
8	Informatika va axborot texnologiyalari	1				1	1	1	1	2	2	2	**11**
IV.	**Tabiiy va iqtisodiy fanlar**	**1**	**2**	**2**	**2**	**2**	**3**	**8**	**8**	**8**	**8**	**8**	**52**
9	Fizika va astronomiya							2	2	2	2	3	**11**
10	Kimyo							2	2	2	2	2	**10**
11	Biologiya					1		2	2	2	2	2	**11**
12	Geografiya va iqtisodiyot					1		2	2	2	2	1	**10**

13	Tabiiy fan (Science)	1	2	2	2		3						**10**
V.	**Amaliy fanlar**	**4**	**5**	**5**	**5**	**6**	**6**	**6**	**4**	**4**	**3**	**3**	**51**
14	Musiqa madaniyati	1	1	1	1	1	1	1					**7**
15	Tasviriy san'at va chizmachilik	1	1	1	1	1	1	1	1	1			**9**
16	Texnologiya	1	1	1	1	2	2	2	1	1			**12**
17	Jismoniy tarbiya	1	2	2	2	2	2	2	2	2	2	2	**21**
18	Chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlik										1	1	**2**
Jami		**22**	**24**	**24**	**24**	**28**	**29**	**34**	**33**	**34**	**31**	**31**	**314**

Ta'lim o'zbek tilida bo'lgan umumiy o'rta ta'lim maktablari uchun 2023-2024-o'quv yiliga mo'ljallangan tayanch o'quv rejaga tushuntirish xati

I. Asosiy tamoyillari

1. 2023-2024-o'quv yili davomida umumiy o'rta ta'lim maktablari o'quvchilarida zamonaviy ko'nikmalarni shakllantirishga alohida e'tibor qaratiladi:

kollaboratsiya – jamoa bo'lib ishlash qobiliyatini shakllantirish;

kommunikativlik – muloqot qilish ko'nikmasini rivojlantirish;

kreativ fikrlash – o'z maqsadiga erishish yo'lida yangiliklarga qo'l urish, yangi g'oyalar ishlab chiqish va muammolarni hal qilish;

tanqidiy fikrlash – o'z mustaqil fikriga ega bo'lish va uni ifoda etish, masalaga tanqidiy yondashish.

II. O'quv soatlarining taqsimlanishi

2. Tayanch o'quv rejada "**Ona tili va adabiyot**" fani uchun ajratilgan haftalik o'quv soatlari quyidagicha taqsimlanadi:

1-sinfda o'quv yilining 1-2-choraklarida haftasiga 4 soat "Alifbe", 4 soat "Yozuv", 3-4-choraklarida 8 soat "Ona tili va o'qish savodxonligi" fani;

2-4-sinfda haftasiga 4 soat "Ona tili", 3 soat "O'qish" fani;

5-6-sinflarda haftasiga 4 soat "Ona tili" va 2 soat "Adabiyot" fani;

7-8-sinflarda haftasiga 3 soat "Ona tili" va 2 soat "Adabiyot" fani;

9-sinfda haftasiga 2 soat "Ona tili" va 3 soat "Adabiyot" fani;

10-11-sinflarda haftasiga 2 soat "Ona tili" va 2 soat "Adabiyot" fani o'qitiladi.

3. Chet tili fani bo'yicha:

umumta'lim maktablarida xorijiy *(ingliz, nemis, fransuz va boshqa)* tillardan birini **chet tili** fani sifatida o'qitishda ota-onalarning talabi va o'quvchilarning xohish-istaklari, shuningdek, ta'lim muassasasida ushbu fan bo'yicha malakali fan o'qituvchisi mavjudligi inobatga olinishi lozim.

Bunda, ota-onalar qo'mitasi ota-onalarning talabi va o'quvchilarning xohish-istaklari asosida ular tomonidan tanlangan chet *(ingliz, nemis, fransuz va boshqa)* tillardan birini **chet tili** fani sifatida o'qitish to'g'risidagi iltimosnoma bilan ta'lim muassasasining pedagogika kengashiga murojaat qiladi. Ushbu murojaat ta'lim muassasasining pedagogika kengashida muhokama qilinadi va kengashning ushbu

fanni chet tili sifatida o‘qitilishi yoki asosli sabablari ko‘rsatilgan holda o‘qitish imkoniyati yo‘qligi to‘g‘risida qaror qabul qiladi. Mazkur qaror asosida chet *(ingliz, nemis, fransuz va boshqa)* tillardan biri umumta’lim maktabida yoki ma’lum bir sinfida **chet tili** fani sifatida o‘qitiladi.

4. “**Tarix**” fani uchun ajratilgan haftalik o‘quv soatlari quyidagicha taqsimlanadi:

7-8-9-sinflarda “O‘zbekiston tarixi” fani haftasiga 2 soatdan, “Jahon tarixi” fani haftasiga 1 soatdan o‘qitiladi;

10-11-sinflarda “O‘zbekiston tarixi” fani haftasiga 1 soatdan, “Jahon tarixi” fani 1 soatdan o‘qitiladi.

5. “**Matematika**” faniga ajratilgan soatlar quyidagicha taqsimlanadi:

1-6-sinflarda “Matematika” fani haftasiga 5 soatdan;

7-11-sinflarda “Algebra” fani 3 soatdan, “Geometriya” fani 2 soatdan o‘qitiladi.

6. “Informatika va axborot texnologiyalari” fani O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi rahbarining 2022-yil 10-oktabrdagi “Zamonaviy maktab darsliklarini tajriba-sinovdan o‘tkazish hamda maktab ta’limi sifatini oshirish to‘g‘risida”gi 14-sonli bayoni, Prezident Administratsiyasining 2023-yil 27-apreldagi 08-740-sonli xatiga muvofiq “Informatika va axborot texnologiyalari” fani 1-sinfdan boshlab o‘qitish belgilandi.

Mazkur bayon ijrosini ta’minlash maqsadida 2023-2024-o‘quv yilidan 1-sinfda “Informatika va axborot texnologiyalari” fani o‘qitilishi yo‘lga qo‘yiladi.

Unga ko‘ra, 1- va 5-8-sinflarda haftasiga 1 soatdan, 9-11-sinflarda haftasiga 2 soat o‘qitiladi.

1-sinfda “Informatika va axborot texnologiyalari” fani o‘quvchilarning mantiqiy fikrlashini rivojlantirishga asoslanganligi sababli mazkur fan boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari tomonidan o‘qitiladi.

Bunda, A.Avloniy nomidagi pedagoglarni kasbiy rivojlantirish va yangi metodikalarga o‘rgatish milliy-tadqiqot instituti tomonidan tashkil etiladigan o‘quv kursini muvaffaqiyatli yakunlagan boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari 1-sinf “Informatika va axborot texnologiyalari” fanini o‘qitadi.

7. “**Fizika**” faniga ajratilgan soatlar quyidagicha taqsimlanadi:

7-11-sinflarda “Fizika” fani haftasiga 2 soatdan, 11-sinfda “Astronomiya” fani haftasiga 1 soat o‘qitiladi.

8. “**Geografiya va iqtisodiyot**” faniga ajratilgan soatlar quyidagicha taqsimlanadi:

7-10-sinflarda 2 soatdan.

Bunda, 8-9-sinflarda uchun 0,5 soatdan “Iqtisodiy bilim asoslari” faniga ajratiladi hamda 8-9-sinflarda “Iqtisodiy bilim asoslari” fani mavzulari fan o‘qituvchisi tomonidan tig‘izlashtirilgan (mavzularni qo‘shgan) holda o‘tiladi va ushbu tig‘izlashtirilgan mavzular sinf jurnalida ko‘rsatiladi.

11-sinfda “Tadbirkorlik asoslari” fani 1 soat o‘qitiladi.

9. “Tabiiy fan (Science)” fani 1-sinfda haftasiga 1 soat, 2-4-sinfda 2 soat, 6-sinfda 3 soat o‘qitiladi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 12-avgustdagi PQ-4805-son “Kimyo va biologiya yo‘nalishlarida uzluksiz ta’lim sifatini va ilm-fan natijadorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori bilan tasdiqlangan “2020-2025-yillarda kimyo va biologiya yo‘nalishida uzluksiz ta’lim sifatini hamda amalga oshirilayotgan ilmiy-tadqiqotlar va innovatsiya ishlari natijadorligini oshirish bo‘yicha maqsadli dastur”ining 6-bandida 1-6-sinflarda atrofimizdagi olam, tabiatshunoslik, geografiya, biologiya, fizika fanlari o‘rniga tabiiy fan (science)ni yagona fan sifatida 2021-2022-o‘quv yilidan boshlab tajriba-sinov tariqasida o‘qitishni bosqichma-bosqich joriy etish” vazifasi belgilangan.

Mazkur qaror ijrosi yuzasidan ushbu fan bosqichma-bosqich joriy qilinib borilmoqda.

Tabiiy fan (science) dars soatlari boshlang‘ich sinfda boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari (rahbarlari), 6-sinfda A.Avloniy nomidagi pedagoglarni kasbiy rivojlantirish va yangi metodikalarga o‘rgatish milliy-tadqiqot instituti tomonidan tashkil etiladigan o‘quv kursini muvaffaqiyatli yakunlagan “Fizika”, “Biologiya”, “Geografiya” fanlari o‘qituvchilariga O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi, Moliya vazirligi va Sog‘liqni saqlash vazirligining 2020-yil 22-iyundagi 8-mh, 28- va 124/1-son qarori bilan tasdiqlangan “Umumta’lim muassasalarida sinflarni komplektlash hamda tarifikatsiya ro‘yxatlarini shakllantirish tartibi to‘g‘risida nizomi”ning *(O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2020-yil 30-iyunda ro‘yxatdan o‘tkazildi, ro‘yxat raqami 3271)* 15-bandida belgilangan ko‘rsatkichlarning ustuvor ketma-ketligi asosida taqsimlanadi.

10. “**Tasviriy san’at va chizmachilik**” faniga ajratilgan soatlar quyidagicha taqsimlanadi:

1-7-sinflarda “Tasviriy san’at” fani haftasiga 1 soatdan o‘qitiladi;

8-9-sinflarda “Chizmachilik” fani haftasiga 1 soatdan o‘qitiladi.

III. Yakuniy qoidalar

11. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 15-martdagi “Umumiy o‘rta ta’lim to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi 140-son qaroriga muvofiq:

malakali o‘qituvchilar yetarli bo‘lgan taqdirda o‘quvchilar soni 25 nafar va undan ziyod bo‘lgan umumiy o‘rta ta’lim muassasalarining 1-11-sinflarida “Chet tili” fani, ayrim fanlar chuqur o‘rganiladigan davlat ixtisoslashtirilgan umumiy o‘rta ta’lim muassasalari va umumiy o‘rta ta’lim maktablarining ixtisoslashtirilgan sinflarida ixtisoslashtirilgan fan, 3-11-sinflarda “Informatika va axborot texnologiyalari”, 2-11-sinflarida “Rus tili”, 8-11-sinflarda “Jismoniy tarbiya”, 5-9-sinflarda “Texnologiya” fanlari ikki guruhga bo‘lib o’qitiladi.

12. O‘quv-tarbiya jarayonini tashkil etishda quyidagi muddatlarga amal qilinadi: o‘quv yilining davomiyligi – 34 hafta (1-sinflar uchun 33 hafta);

o‘quv haftasining davomiyligi – 1-4-sinflarda 5 kun, 5-11-sinflarda 6 kun;

dars mashg‘ulotining davomiyligi – 45 daqiqa;

dars mashg‘ulotlari oralig‘idagi tanaffus davomiyligi – 5-10 daqiqa (o‘quv kuni o‘rtasidagi tanaffusning davomiyligi – 15-30 daqiqa).

13. Tegishli qonun hujjatlarida belgilangan bayram (ishlanmaydigan) kunlarida dars mashg‘ulotlari o‘tkazilmaydi.

Bayram (ishlanmaydigan) kunlariga to‘g‘ri kelib qolgan dars mashg‘ulotlarining mavzulari o‘quv dasturlarini ixchamlashtirgan holda keyingi dars mashg‘ulotlarida o‘tiladi.

14. O‘quv yili davomidagi ta’tillarning muddatlari quyidagicha belgilanadi: kuzgi ta’til – 4-noyabrdan boshlab 6 kalendar kuni;

qishki ta’til – 28-dekabrdan boshlab 14 kalendar kuni;

bahorgi ta’til – 21- martdan boshlab 7 kalendar kuni;

yozgi ta’til – oxirgi bosqichli nazorat sinovi o‘tkazilgan kundan (bosqichli nazorat o‘tkazilmaydigan sinflar uchun o‘quv yili tugagan kundan keyingi kundan) boshlab 1-sentabrgacha.

Ta’tilning oxirgi kuni bayram (ishlanmaydigan) kuniga to‘g‘ri kelib qolgan taqdirda, dars mashg‘ulotlari keyingi ish kunidan boshlab davom ettiriladi.

1-sinf o‘quvchilari uchun fevral oyi davomida qo‘shimcha bir haftalik ta’til beriladi.

15. Mazkur tayanch o‘quv reja va tushuntirish xati asosida har bir umumiy o‘rta ta’lim muassasasi 2023-2024-o‘quv yiliga mo‘ljallangan o‘quv reja ishlab chiqadi va avgust oyidagi Pedagogik Kengashining qarori bilan tasdiqlaydi.

16. Umumiy o‘rta ta’lim muassasalarining Pedagogik Kengashlarida o‘quv rejani tuzishda tayanch o‘quv rejadagi umumiy soatlar hajmidan oshmagan holda, ma’lum bir fanlarni chuqurlashtirib o‘qitish maqsadida 15 foizgacha o‘zgartirish kiritish huquqi beriladi.

17. Barcha turdagi davlat umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida mazkur o‘quv reja asosida tashkil etiladigan darslar (mashg‘ulotlar) davlat budjeti mablag‘lari hisobidan amalga oshiriladi.

O‘zbekiston Respublikasi
Maktabgacha va maktab ta’limi
vazirining 2023-yil 15-maydagi
125-son buyrug‘iga
2-ILOVA

Ta’lim rus va qardosh tillarida olib boriladigan umumiy o‘rta ta’lim maktablari uchun 2023-2024-o‘quv yiliga mo‘ljallangan tayanch o‘quv reja

T/r	Fan yo‘nalishlari va nomlari	Haftalik o‘quv soatlari (sinflar kesimida)											Haftalik umumiy soat
		1	*2*	*3*	*4*	*5*	*6*	*7*	*8*	*9*	*10*	*11*	
I.	**Filologiya fanlari**	**10**	**11**	**11**	**11**	**11**	**11**	**10**	**10**	**10**	**9**	**9**	**113**
1	Ona tili va adabiyot	8	7	7	7	5	5	4	4	4	3	3	**57**
2	O‘zbek tili/Rus tili		2	2	2	3	3	3	3	3	3	3	**27**
3	Chet tili	2	2	2	2	3	3	3	3	3	3	3	**29**
II.	**Ijtimoiy fanlar**	**1**	**1**	**1**	**1**	**3**	**3**	**4**	**5**	**5**	**4**	**4**	**32**
4	Tarix					2	2	3	3	3	2	2	**17**
5	Davlat va huquq asoslari								1	1	1	1	**4**
6	Tarbiya	1	1	1	1	1	1	1	1	1	1	1	**11**
III.	**Aniq fanlar**	**6**	**5**	**5**	**5**	**6**	**6**	**6**	**6**	**7**	**7**	**7**	**66**
7	Matematika	5	5	5	5	5	5	5	5	5	5	5	**55**
8	Informatika va axborot texnologiyalari	1				1	1	1	1	2	2	2	**11**
IV.	**Tabiiy va iqtisodiy fanlar**	**1**	**2**	**2**	**2**	**2**	**3**	**8**	**8**	**8**	**8**	**8**	**52**
9	Fizika va astronomiya							2	2	2	2	3	**11**
10	Kimyo							2	2	2	2	2	**10**
11	Biologiya					1		2	2	2	2	2	**11**
12	Geografiya va iqtisodiyot					1		2	2	2	2	1	**10**

13	Tabiiy fan (Science)	1	2	2	2		3						**10**
V.	**Amaliy fanlar**	**4**	**5**	**5**	**5**	**6**	**6**	**6**	**4**	**4**	**3**	**3**	**51**
14	Musiqa madaniyati	1	1	1	1	1	1	1					**7**
15	Tasviriy san'at va chizmachilik	1	1	1	1	1	1	1	1	1			**9**
16	Texnologiya	1	1	1	1	2	2	2	1	1			**12**
17	Jismoniy tarbiya	1	2	2	2	2	2	2	2	2	2	2	**21**
18	Chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlik										1	1	**2**
Jami		**22**	**24**	**24**	**24**	**28**	**29**	**34**	**33**	**34**	**31**	**31**	**314**

Ta'lim rus va qardosh tillarida olib boriladigan umumiy o'rta ta'lim maktablari uchun 2023-2024-o'quv yiliga mo'ljallangan tayanch o'quv rejaga tushuntirish xati

I. Asosiy tamoyillari

2023-2024-o'quv yili davomida umumiy o'rta ta'lim maktablari o'quvchilarida zamonaviy ko'nikmalarni shakllantirishga alohida e'tibor qaratiladi:

kollaboratsiya – jamoa bo'lib ishlash qobiliyatini shakllantirish;

kommunikativlik – muloqot qilish ko'nikmasini rivojlantirish;

kreativ fikrlash – o'z maqsadiga erishish yo'lida yangiliklarga qo'l urish, yangi g'oyalar ishlab chiqish va muammolarni hal qilish;

tanqidiy fikrlash – o'z mustaqil fikriga ega bo'lish va uni ifoda etish, masalaga tanqidiy yondashish.

II. O'quv soatlarining taqsimlanishi

2. Tayanch o'quv rejada "**Ona tili va adabiyot**" fani uchun ajratilgan haftalik o'quv soatlari quyidagicha taqsimlanadi:

1-sinfda o'quv yilining 1-2-choraklarida haftasiga 4 soat "Alifbe", 4 soat "Yozuv", 3-4-choraklarida 8 soat "Ona tili va o'qish savodxonligi" fani;

2-4-sinfda haftasiga 4 soat "Ona tili", 3 soat "O'qish" fani;

5-6-sinflarda haftasiga 3 soat "Ona tili" va 2 soat "Adabiyot" fani;

7-9-sinflarda haftasiga 2 soat "Ona tili" va 2 soat "Adabiyot" fani;

10-11-sinflarda haftasiga 1 soat "Ona tili" va 2 soat "Adabiyot" fani o'qitiladi.

3. Tayanch o'quv rejada "**O'zbek tili/rus tili**" fani uchun 2-4-sinflarda haftasiga 2 soatdan, 5-11-sinflarda haftasiga 3 soatdan ajratilgan bo'lib, ushbu fanlar quyidagi taqsimot asosida o'qitiladi:

ta'lim **rus** va **qardosh** tillarda olib boriladigan ta'lim muassasalarida "O'zbek tili" fani 2-4-sinflarda 2 soatdan, 5-11-sinflarda 3 soatdan o'qitiladi;

ta'lim **qoraqalpoq, qozoq, qirg'iz, tojik va turkman** tillarida olib boriladigan maktablarda "Rus tili" fani o'quvchilar va ota-onalar (yoki ularning o'rnini bosuvchi shaxslar)ning xohishi (qarori)ga ko'ra, 2-sinfdan boshlab "Ona tili va adabiyot" fanidan 1 soat olinib o'qitilishi mumkin.

4. Chet tili fani bo'yicha:

umumta'lim maktablarida chet *(ingliz, nemis, fransuz va boshqa)* tillardan birini **chet tili** fani sifatida o'qitishda ota-onalarning talabi va o'quvchilarning xohish-istaklari, shuningdek, ta'lim muassasasi-

da ushbu fan bo‘yicha malakali fan o‘qituvchisi mavjudligi inobatga olinishi lozim.

Bunda, ota-onalar qo‘mitasi ota-onalarning talabi va o‘quvchilarning xohish-istaklari asosida ular tomonidan tanlangan chet *(ingliz, nemis, fransuz va boshqa)* tillardan birini **chet tili** fani sifatida o‘qitish to‘g‘risidagi iltimosnoma bilan ta’lim muassasasining pedagogika kengashiga murojaat qiladi. Ushbu murojaat ta’lim muassasasining pedagogika kengashida muhokama qilinadi va kengashning ushbu fanni chet tili sifatida o‘qitilishi yoki asosli sabablari ko‘rsatilgan holda o‘qitish imkoniyati yo‘qligi to‘g‘risida qaror qabul qiladi. Mazkur qaror asosida chet *(ingliz, nemis, fransuz va boshqa)* tillardan biri umumta’lim maktabida yoki ma’lum bir sinfida **chet tili** fani sifatida o‘qitiladi.

5. “**Tarix**” fani uchun ajratilgan haftalik o‘quv soatlari quyidagicha taqsimlanadi:

7-8-9-sinflarda “O‘zbekiston tarixi” fani haftasiga 2 soatdan, “Jahon tarixi” fani haftasiga 1 soatdan o‘qitiladi;

10-11-sinflarda “O‘zbekiston tarixi” fani haftasiga 1 soatdan, “Jahon tarixi” fani 1 soatdan o‘qitiladi.

6. “**Matematika**” faniga ajratilgan soatlar quyidagicha taqsimlanadi:

1-6-sinflarda “Matematika” fani haftasiga 5 soatdan;

7-11-sinflarda “Algebra” fani 3 soatdan, “Geometriya” fani 2 soatdan o‘qitiladi.

7. “Informatika va axborot texnologiyalari” fani O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi rahbarining 2022-yil 10-oktabrdagi “Zamonaviy maktab darsliklarini tajriba-sinovdan o‘tkazish hamda maktab ta’limi sifatini oshirish to‘g‘risida”gi 14-sonli bayoni, Prezident Administratsiyasining 2023-yil 27-apreldagi 08-740-sonli xatiga muvofiq “Informatika va axborot texnologiyalari” fani 1-sinfdan boshlab o‘qitish belgilandi.

Mazkur bayon ijrosini ta’minlash maqsadida 2023-2024-o‘quv yilidan 1-sinfda “Informatika va axborot texnologiyalari” fani o‘qitilishi yo‘lga qo‘yiladi.

1-sinfda “Informatika va axborot texnologiyalari” fani o‘quvchilarning mantiqiy fikrlashini rivojlantirishga asoslanganligi sababli mazkur fan boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari tomonidan o‘qitiladi.

Unga ko‘ra, 1- va 5-8-sinflarda haftasiga 1 soatdan, 9-11-sinflarda haftasiga 2 soat o‘qitiladi.

Bunda, A.Avloniy nomidagi pedagoglarni kasbiy rivojlantirish va yangi metodikalarga o‘rgatish milliy-tadqiqot instituti tomonidan

tashkil etiladigan o‘quv kursini muvaffaqiyatli yakunlagan boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari 1-sinf “Informatika va axborot texnologiyalari” fanini o‘qitadi.

8. “**Fizika**” faniga ajratilgan soatlar quyidagicha taqsimlanadi:

7-11-sinflarda “Fizika” fani haftasiga 2 soatdan, 11-sinfda “Astronomiya” fani haftasiga 1 soat o‘qitiladi.

9. “**Geografiya va iqtisodiyot**” faniga ajratilgan soatlar quyidagicha taqsimlanadi:

7-10-sinflarda 2 soatdan.

Bunda, 8-9-sinflarda uchun 0,5 soatdan “Iqtisodiy bilim asoslari” faniga ajratiladi hamda 8-9-sinflarda “Iqtisodiy bilim asoslari” fani mavzulari fan o‘qituvchisi tomonidan tig‘izlashtirilgan (mavzularni qo‘shgan) holda o‘tiladi va ushbu tig‘izlashtirilgan mavzular sinf jurnalida ko‘rsatiladi.

11-sinfda “Tadbirkorlik asoslari” fani 1 soat o‘qitiladi.

10. “Tabiiy fan (Science)” fani 1-sinfda haftasiga 1 soat, 2-5-sinfda 2 soat, 6-sinfda 3 soat o‘qitiladi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 12-avgustdagi PQ-4805-son “Kimyo va biologiya yo‘nalishlarida uzluksiz ta’lim sifatini va ilm-fan natijadorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori bilan tasdiqlangan “2020-2025-yillarda kimyo va biologiya yo‘nalishida uzluksiz ta’lim sifatini hamda amalga oshirilayotgan ilmiy-tadqiqotlar va innovatsiya ishlari natijadorligini oshirish bo‘yicha maqsadli dastur”ining 6-bandida 1-6-sinflarda atrofimizdagi olam, tabiatshunoslik, geografiya, biologiya, fizika fanlari o‘rniga tabiiy fan (science)ni yagona fan sifatida

2021-2022-o‘quv yilidan boshlab tajriba-sinov tariqasida o‘qitishni bosqichma-bosqich joriy etish” vazifasi belgilangan.

Mazkur qaror ijrosi yuzasidan ushbu fan bosqichma-bosqich joriy qilinib borilmoqda.

Tabiiy fan (science) dars soatlari boshlang‘ich sinfda boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari (rahbarlari), 6-sinfda A.Avloniy nomidagi pedagoglarni kasbiy rivojlantirish va yangi metodikalarga o‘rgatish milliy-tadqiqot instituti tomonidan tashkil etiladigan o‘quv kursini muvaffaqiyatli yakunlagan “Fizika”, “Biologiya”, “Geografiya” fanlari o‘qituvchilariga O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi, Moliya vazirligi va Sog‘liqni saqlash vazirligining 2020-yil 22-iyundagi 8-mh, 28- va 124/1-son qarori bilan tasdiqlangan “Umumta’lim muassasalarida sinflarni komplektlash hamda tarifikatsiya ro‘yxatlarini shakllantirish tartibi to‘g‘risida nizomi”ning *(O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2020-yil 30-iyunda ro‘yxatdan o‘tkazil-*

di, ro‘yxat raqami 3271) 15-bandida belgilangan ko‘rsatkichlarning ustuvor ketma-ketligi asosida taqsimlanadi.

11. “**Tasviriy san’at va chizmachilik**” faniga ajratilgan soatlar quyidagicha taqsimlanadi:

1-7-sinflarda “Tasviriy san’at” fani haftasiga 1 soatdan o‘qitiladi;

8-9-sinflarda “Chizmachilik” fani haftasiga 1 soatdan o‘qitiladi.

III. Yakuniy qoidalar

12. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 15-martdagi “Umumiy o‘rta ta’lim to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi 140-son qaroriga muvofiq:

malakali o‘qituvchilar yetarli bo‘lgan taqdirda o‘quvchilar soni 25 nafar va undan ziyod bo‘lgan umumiy o‘rta ta’lim muassasalarining 1-11-sinflarida “Chet tili” fani, ayrim fanlar chuqur o‘rganiladigan davlat ixtisoslashtirilgan umumiy o‘rta ta’lim muassasalari va umumiy o’rta ta’lim maktablarining ixtisoslashtirilgan sinflarida ixtisoslashtirilgan fan, 3-11-sinflarda “Informatika va axborot texnologiyalari”, 2-11- sinflarida “Rus tili”, 8-11-sinflarda “Jismoniy tarbiya”, 5-9-sinflarda “Texnologiya” fanlari ikki guruhga bo‘lib o‘qitiladi.

13. O‘quv-tarbiya jarayonini tashkil etishda quyidagi muddatlarga amal qilinadi: o‘quv yilining davomiyligi – 34 hafta (1-sinflar uchun 33 hafta);

o‘quv haftasining davomiyligi – 1-4-sinflarda 5 kun, 5-11-sinflarda 6 kun;

dars mashg‘ulotining davomiyligi – 45 daqiqa;

dars mashg‘ulotlari oralig‘idagi tanaffus davomiyligi – 5-10 daqiqa (o‘quv kuni o‘rtasidagi tanaffusning davomiyligi – 15-30 daqiqa).

14. Tegishli qonun hujjatlarida belgilangan bayram (ishlanmaydigan) kunlarida dars mashg‘ulotlari o‘tkazilmaydi.

Bayram (ishlanmaydigan) kunlariga to‘g‘ri kelib qolgan dars mashg‘ulotlarining mavzulari o‘quv dasturlarini ixchamlashtirgan holda keyingi dars mashg‘ulotlarida o‘tiladi.

15. O‘quv yili davomidagi ta’tillarning muddatlari quyidagicha belgilanadi:

kuzgi ta’til – 4-noyabrdan boshlab 6 kalendar kuni;

qishki ta’til – 28-dekabrdan boshlab 14 kalendar kuni;

bahorgi ta’til –21- martdan boshlab 7 kalendar kuni;

yozgi ta’til – oxirgi bosqichli nazorat sinovi o‘tkazilgan kundan (bosqichli nazorat o‘tkazilmaydigan sinflar uchun o‘quv yili tugagan kundan keyingi kundan) boshlab 1-sentabrgacha.

Ta’tilning oxirgi kuni bayram (ishlanmaydigan) kuniga to‘g‘ri kelib qolgan taqdirda, dars mashg‘ulotlari keyingi ish kunidan boshlab davom ettiriladi.

1-sinf o‘quvchilari uchun fevral oyi davomida qo‘shimcha bir haftalik ta’til beriladi.

16. Mazkur tayanch o‘quv reja va tushuntirish xati asosida har bir umumiy o‘rta ta’lim muassasasi 2023-2024-o‘quv yiliga mo‘ljallangan o‘quv reja ishlab chiqadi va avgust oyidagi Pedagogik Kengashining qarori bilan tasdiqlaydi.

17. Umumiy o‘rta ta’lim muassasalarining Pedagogik Kengashlarida o‘quv rejani tuzishda tayanch o‘quv rejadagi umumiy soatlar hajmidan oshmagan holda, ma’lum bir fanlarni chuqurlashtirib o‘qitish maqsadida 15 foizgacha o‘zgartirish kiritish huquqi beriladi.

18. Barcha turdagi davlat umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida mazkur o‘quv reja asosida tashkil etiladigan darslar (mashg‘ulotlar) davlat budjeti mablag‘lari hisobidan amalga oshiriladi.

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI MAKTABGACHA VA MAKTAB TA’LIMI VAZIRINING BUYRUG‘I

2023-2024-o‘quv yili uchun ta’lim darajasi yuqori bo‘lmagan maktablar ro‘yxatini shakllantirish mezonlarini tasdiqlash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Ta’lim darajasi yuqori bo‘lmagan maktablarga malakali o‘qituvchi pedagoglarni jalb qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2021-yil 15-oktabrdagi 646-son qaroriga muvofiq 2023-2024-o‘quv yili uchun ta’lim darajasi yuqori bo‘lmagan maktablar ro‘yxatini shakllantirish mezonlarini tasdiqlash maqsadida **buyuraman:**

1. Quyidagilar:

2023-2024-o‘quv yili uchun ta’lim darajasi yuqori bo‘lmagan maktablar ro‘yxatini shakllantirish bo‘yicha baholash mezonlari (keyingi o‘rinlarda – baholash mezonlari) 1-ilovaga muvofiq;

Ta’lim darajasi yuqori bo‘lmagan maktablar ro‘yxatini shakllantirishning namunaviy jadvali 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

2. Qoraqalpog‘iston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vaziri, Toshkent shahar va viloyatlar maktabgacha va maktab ta’limi boshqarmalari boshliqlari 2023-yilning 29-mayga qadar tasdiqlangan baholash mezonlari asosida umumta’lim maktablari faoliyatini baholasin va ta’lim darajasi yuqori bo‘lmagan maktablar ro‘yxatiga kiritiladigan maktablar to‘g‘risida taklif kiritsin.

3. Ta’lim sifatini baholash, litsenziyalash va akkreditatsiyalash departamenti (S.Radjabov):

a) Umumiy o‘rta ta’lim tashkilotlari faoliyatini muvofiqlashtirish boshqarmasi (E.Murodov) tomonidan umumiy o‘rta ta’lim muassasalari bitiruvchilarini tegishli o‘quv yilida o‘qishga qabul qilishda oliy ta’lim tashkilotlariga kirish imtihoni natijalari bo‘yicha o‘rtacha ball ko‘rsatkichlari;

Axborot-tahlil va ijro intizomi boshqarmasi (Sh.Muxamedov) 2022-yilda umumta’lim maktablarida o‘tkazilgan “Zamonaviy maktablar”ga qo‘yilgan talablar asosida baholash natijalari;

Fan olimpiadalarini o‘tkazish va iqtidorli o‘quvchilarni saralash boshqarmasi (U.Raxmonov) tomonidan 2022-2023-o‘quv yilida o‘tkazilgan fan olimpiadasining tuman (shahar) bosqichida ishtirok etgan o‘quvchilarning natijalari;

Axborot kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish va raqamlashtirish bo‘limi (R.Musurmonov) tomonidan “erp.maktab.uz” axborot tizimi bazasida shakllantirilgan umumta’lim maktablarida faoliyat olib borayotgan pedagoglarning sifat tarkibi (malaka toifasi va oliy ma’lumot) to‘g‘risida maktablar kesimida taqdim etiladigan ma’lumotlar bilan hududiy boshqarmalar tomonidan taqdim etiladigan ma’lumotlarni taqqoslagan holda tahlil qilib, umumlashtirsin;

b) umumlashtirilgan ma’lumotlar asosida ta’lim darajasi yuqori bo‘lmagan maktablar ro‘yxatini shakllantirib, tasdiqlash uchun vazirlik rahbariyatiga kiritsin.

4. Axborot xizmati (D.Sobirova) 2023-2024-o‘quv yili uchun tasdiqlangan ta’lim darajasi yuqori bo‘lmagan maktablar ro‘yxatini 3 kun muddatda vazirlikning rasmiy veb-sayti hamda ijtimoiy tarmoqlaridagi sahifalarida e’lon qilsin.

5. Devonxona (D.Isxakova) ushbu buyruqni bir kunlik muddatda markaziy apparat tarkibiy bo‘linmalari hamda hududiy boshqarmalariga yetkazsin.

6. Mazkur buyruqning ijrosini nazorat qilish vazir kotibiyati boshlig‘i J.Shamshiyev zimmasiga yuklatilsin.

Vazir **X.Umarova**

Toshkent sh.,
2023-yil 18-may,
130-son

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI MAKTABGACHA VA MAKTAB TA’LIMI VAZIRINING BUYRUG‘I

Samarqand viloyati maktabgacha va maktab ta’imi boshqarmasi faoliyatini o‘rganish to‘g‘risida

Samarqand viloyati maktabgacha va maktab ta’limi boshqarmasi faoliyatining shaffofligi va samaradorligini o‘rganish maqsadida **buyuraman:**

1. Samarqand viloyati maktabgacha va maktab ta’limi boshqarmasini 2023-yil 30-maydan 3-iyungacha o‘rganish amalga oshirilsin.

2. Samarqand viloyati maktabgacha va maktab ta’limi boshqarmasining faoliyatini o‘rganish bo‘yicha ishchi guruh (keyingi o‘rinlarda – ishchi guruh) tarkibi 1-ilovaga, savolnoma 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Ishchi guruhga:

o‘rganish qonunchilik hujjatlari talablariga muvofiq tasdiqlangan savolnoma bo‘yicha amalga oshirilsin va natijalari belgilangan tartibda rasmiylashtirilsin;

moliya-xo‘jalik faoliyati bilan bog‘liq ma’lumotlarni uchinchi shaxslarga bermaslik yoki oshkor qilmaslik chora-tadbirlari ko‘rilsin;

aniqlangan va bartaraf etilishi mumkin bo‘lgan kamchiliklar joyida bartaraf etilsin;

moliya-xo‘jalik faoliyati sohasiga oid qonunchilik hujjatlarini amalda qo‘llash bo‘yicha mas’ul xodimlarga tushuntirishlar berilsin;

o‘rganish natijalari yuzasidan ma’lumotlar va faoliyatni tizimli tashkil etish bo‘yicha takliflar Ichki audit va moliyaviy nazorat departamentiga kiritilsin.

4. Ichki audit va moliyaviy nazorat departamenti (M.Faxrutdinov):

ishchi guruh faoliyatini muvofiqlashtirsin;

o‘rganish jarayonidagi muammoli masalalarni joyida hal etish choralarini ko‘rsin;

uch ish kunida o‘rganish yakunlari bo‘yicha rasmiylashtirilgan ma’lumotlar asosida tegishli chora ko‘rish uchun Vazirga taqdim etsin.

5. Samarqand viloyati maktabgacha va maktab ta’limi boshqarmasi (Sh.Sultonov):

ishchi guruh faoliyatini amalga oshirish uchun barcha zarur shart-sharoitlami yaratsin va tegishli hujjatlarni taqdim etishi haqida mas’ul xodimlarga tegishli kohsatma berilsin;

moliya-xo‘jalik faoliyatida foydalanilayotgan barcha dasturlarda, xususan, moliya-buxgalteriya xizmatlarining “UzASBO” dasturida ishchi guruhi a’zolarining o‘rganishi uchun imkoniyat yaratsin va mas’ul xodimlar hamda moddiy javobgar shaxslarni o‘rganish jarayoniga ishtirokini ta’minlasin;

ishchi guruh tomonidan ko‘rsatilgan va bartaraf etilishi mumkin bo‘lgan kamchiliklarni joyida bartaraf etsin, bartaraf etish imkoni bo‘lmagan kamchiliklarni keyingi faoliyatda yo‘l qo‘ymaslik bo‘yicha chora-tadbirlar belgilab, tasdiqlasin.

6. Inson resurslarini rivojlantirish boshqarmasi (Z.Togayeva) mazkur buyruq bilan tasdiqlangan mas’ullarni belgilangan muddatlarda xizmat safariga borishi yuzasidan hujjatlar rasmiylashtirsin.

7. Buxgalteriya hisobi va hisoboti bo‘limi (F. Jamuratova) xizmat safari bilan bog‘liq sarf-xarajatlarni 1-ilovada ko‘rsatilgan vazirlik xodimlariga belgilangan tartibda to‘lanishini amalga oshirsin.

8. Devonxona (D. Isxakova) ushbu buyruqni o‘rnatilgan tartibda tegishli boshqarma va bo‘limlarga yetkazilishini ta’minlasin.

9. Mazkur buyruqning ijrosini nazorat qilishni o‘z zimmamda qoldiraman.

Vazir **X.Umarova**

Toshkent sh.,
2023-yil 29-may,
134-son

O‘zbekiston Respublikasi
Maktabgacha va maktab ta’limi vazirining 2023-yil 29-maydagi 134-sonli buyrug‘iga
1-ILOVA

Samarqand viloyati maktabgacha va maktab ta’limi boshqarmasining faoliyatini o‘rganish uchun ISHCHI GURUH TARKIBI

T/r	F.L	Lavozimi
1.	I. Babayarov	- Ichki audit va moliyaviy nazorat departamenti Ichki audit va vazirlik tarkibiy bo‘linmalari faoliyatini tekshirish boshqarmasi bosh mutaxassisi, *guruh rahbari*
2.	A. Yarbekov	- Ixtisoslashtirilgan ta’lim muassasalari agentligi Inson resurslarini boshqarish va rivojlantirish bo‘limi boshligi v. b.
3.	X. Xalniyazov	- Moliya-iqtisod departamenti Moliyaviy uslubiyot va respublika tashkilotlarini moliyalashtirish bo‘limi bosh mutaxassisi, *a ’zo*
4.	M. Turg‘unov	- Ichki audit va moliyaviy nazorat departamenti Davlat mulkidan foydalanish va uni tasarruf etish faoliyatini tekshirish boshqarmasi yetakchi mutaxassisi, *a ‘zo*

O‘zbekiston Respublikasi
Maktabgacha va maktab ta’limi vazirining 2023-yil 29-maydag 134-sonli buyrug‘iga
2-ILOVA’

Samarqand viloyati maktabgacha va maktab ta’limi boshqarmasining faoliyatini o‘rganish bo‘yicha SAVOLNOMA

1. Boshqarma hujjatlari to‘g‘ri rasmiylashtirilganligi.
2. Boshqaruv faoliyatining tegishli hujjatlari (ustav, pasport, nizomlar) bilan rasmiylashtirilganligi.
3. Tarifikatsiya va shtat jadvali asosida ishchi xodimlarga to‘langan ish haqi va unga tenglashtirilgan mablag‘lardan to‘g‘ri foydalanish holati.
4. Budjet intizomini mustahkamlash va budjet to‘g‘risidagi qonunchilik hujjatlarining buzilishi holatlari profilaktikasini amalga oshirish, budjet xarajatlarining samaradorligi va natijadorligini baholash.
5. Davlat xaridlari jarayonining to‘g‘ri va qonuniy tashkil etilganligi va mablag‘lardan samarasiz va noqonuniy foydalanilishining oldini olish.
6. Moliyaviy hisobotlarning ishonchliligi, asoslanganligi, to‘liqligi hamda to‘g‘ri shakllantirilganligi.
7. Kadrlar xizmatini tashkil etishda qonunchilik talablariga rioya etilishi.

Izoh: O‘rganish davomida zaruratga ko‘ra mazkur savolnomadan tashqari boshqa masalalar ham ko‘rilishi mumkin.

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI MAKTABGACHA VA MAKTAB TA’LIMI VAZIRINING BUYRUG‘I

2023-yilgi yozgi mavsumda Mehribonlik uylari tarbiyalanuvchilarini dam oldirish va sog‘lomlashtirish ishlarini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida

Bolalarning dam olishlarini tizimli tashkil etish va sog‘lomlashtirish masalalari bo‘yicha respublika komissiyasining “2023-yilgi bolalarni dam olish va sog‘lomlashtirish mavsumiga tayyorgarlik ko‘rish va uni o‘tkazish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2023-yil 16-maydagi 18-sonli majlis bayonida belgilangan vazifalar ijrosini ta’minlash maqsadida **buyuraman:**

1. Mehribonlik uylari tarbiyalanuvchilarini 2023-yil yozgi oromgohlarda dam oldirish mavsumi **joriy yilning 10-iyunidan** yo‘lga qo‘yilsin.

2. Mehribonlik uylari tarbiyalanuvchilarini 2023-yil yozgi oromgohlarda dam oldirish **reja-taqsimoti** ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. A.P.Xlebushkina nomidagi 22-sonli Mehribonlik uyi (D.Djurayeva) Chirchiq shahridagi 14-sonli Mehribonlik uyi tarbiyalanuvchilarini 1-smena davomida “Gulbahor” sog‘lomlashtirish oromgohiga jalb etish hamda dam olishlarini tashkil etish choralarini ko‘rsin.

4. Respublika “Mehribonlik uylari” sog‘lomlashtirish oromgohi (O.Turdiyev)ga:

joriy yilning 25 iyuniga qadar oromgohni yozgi mavsumga talab darajasida tayyorlash;

oromgoh yotoqxonalari, oshxona, kutubxona va sport maydonlarini zaruriy jihozlar bilan ta’minlash;

oromgoh va oromgoh tashqarisida o‘tkazilayotgan tadbirlarda bolalar hayoti va sog‘lig‘ini muhofaza qilish hamda xavfsizligini ta’minlash choralarini ko‘rish;

oromgoh ochilish va yopilish marosimlarini tantanali ravishda tashkil etish vazifalari topshirilsin.

5. Maktabdan tashqari ta’limni tashkil etish bo‘limi (I.Xoldarova), “Barkamol avlod” Respublika bolalar maktabi (S.Maxmudova), Respublika “Bolalar kutubxonasi” (D.O‘rolov) Respublika “Mehribonlik uylari” sog‘lomlashtirish oromgohida **mavsum davomida** turli ko‘ngilochar va ommaviy tadbirlar tashkil etish, badiiy adabiyotlar bilan

ta'minlash hamda to‘garaklar faoliyatini yo‘lga qo‘yish choralarini ko‘rsin.

6. Bolalarni ijtimoiy himoya qilish va inklyuziv ta'limni rivojlantirish bo‘limi (S.Xoliqov), Toshkent viloyati va Toshkent shahar maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmalari boshliqlariga:

Mehribonlik uylari tarbiyalanuvchilarini oromgohlarga belgilangan muddatlarda xavfsizligini ta'minlagan holda o‘z avtobuslarida to‘liq yetib borishlarini ta'minlash;

oromgohlarda tarbiyalanuvchilarni oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlash hamda ularni tayyorlash sanitariya me'yorlari talablariga rioya qilgan holda Mehribonlik uylari tomonidan tashkil etilishini inobatga olish vazifalari yuklatilsin.

7. Aborot xizmati (D.Sobirova) oromgohlarda bolalarni yozgi dam oldirish jarayoni hamda joylardagi tadbirlarni ommaviy axborot vositalari hamda vazirlikning rasmiy veb-saytida keng yoritish choralarini ko‘rsin.

8. Devonxona (D.Isxakova) ushbu buyruqni bir kunlik muddatda vazirlikning tegishli tarkibiy bo‘linmalari, tasarrufdagi tashkilotlar va muassasalar hamda hududiy boshqarmalarga yetkazilishini ta'minlasin.

9. Ushbu buyruqning ijrosini nazorat qilish vazir o‘rinbosari D.Kenjayev zimmasiga yuklatilsin.

Vazir **X. Umarova**

Toshkent sh.,
2023-yil 29-may,
135-son

O‘zbekiston Respublikasi
Maktabgacha va maktab ta’limi vazirining
2023-yil 29-maydagi
135-sonli buyrug‘iga
ILOVA

Mehribonlik uylari tarbiyalanuvchilarini 2023-yil yozgi oromgohlarda dam oldirish
REJA-TAQSIMOTI

T/r	Mehribonlik uyi	1-smena *(10-vy’undan 24-iyun-gacha)*	2-smena *(27-iyundan 11-iyulga-cha)*	3-smena *(14-iyuldan 28-iyulga-cha)*	4-smena *(31-iyuldan 15-avgust-gacha)*
1	Chirchiq shah-ridagi 14-sonli Mehribonlik uyi	Gulbahor oromgohi	Respublika Mehribonlik uylari oromgohi	Respublika Mehribonlik uylari oromgohi	Respublika Mehribonlik uylari oromgohi
2	Chilonzor tuma-nidagi 22-sonli Mehribonlik uyi	Gulbahor oromgohi	Respublika Mehribonlik uylari oromgohi	Respublika Mehribonlik uylari oromgohi	Respublika Mehribonlik uylari oromgohi
3	Yashnobod tuma-nidagi 30-sonli Mehribonlik uyi	Nur dala hovlisi	Nur dala hovlisi	Nur dala hovlisi	Nur dala hovlisi

Izoh: *Mehribonlik uyi tarbiyalanuvchilarining soni o‘zgaruvchanligini inobatga olgan holda reja-taqsimot-ga qo‘shimcha va o‘zgartirish kiritish vakolati D.Kenjayevga beriladi.*

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI MAKTABGACHA VA MAKTAB TA’LIMI VAZIRINING BUYRUG‘I

O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirining 2023-yil 3-martdagi “Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi tizimidagi ta’lim tashkilotlarida rasmiy hujjatlarga apostil qo‘yish jarayonini tashkil etish to‘g‘risida”gi 41-sonli buyrug‘iga o‘zgartirish kiritish haqida

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Rasmiy hujjatlarga apostil qo‘yish tartibini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2021-yil 3-dekabrdagi 732-son qarori ijrosini ta’minlash hamda Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi tizimidagi ta’lim tashkilotlarida rasmiy hujjatlarga apostil qo‘yish bo‘yicha tegishli chora-tadbirlarni belgilash maqsadida **buyuraman:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirining 2023-yil 3-martdagi “Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi tizimidagi ta’lim tashkilotlarida rasmiy hujjatlarga apostil qo‘yish jarayonini tashkil etish to‘g‘risida”gi 41-son buyrug‘ining 4-bandi quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali (YAIDXP) orqali kelib tushgan rasmiy hujjatlarga apostil qo‘yish so‘rovnomasini belgilangan muddatlarda ko‘rib chiqilishi va javob yo‘llanishi uchun Ta’lim sifatini baholash va monitoring qilish boshqarmasi yetakchi mutaxassisi (O.Sayfullayev)ga shaxsiy mas’uliyat yuklatilsin.

Vazirlik tizimi tashkilotlaridan chiqqan rasmiy hujjatlarga an’anaviy shaklda apostil qo‘yish jarayonida O.Sayfullayevning imzosini tasdiqlash uchun vazirlikning rasmiy gerbli muhridan foydalanishga ruxsat berilsin.”.

2. Mazkur buyruqning ijrosini nazorat qilishni o‘z zimmamda qoldiraman.

Vazir **X. Umarova**

Toshkent sh.,
2023-yil 31-may,
137-son

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI MAKTABGACHA VA MAKTAB TA’LIMI VAZIRINING BUYRUG‘I

O‘zbekiston Respublikasining “Alkogol va tamaki mahsulotlarining tarqatilishini hamda iste’mol qilinishini cheklash to‘g‘risida”gi Qonun ijrosi haqida

Maktabgacha va maktab ta’limi tizimida O‘zbekiston Respublikasining “Alkogol va tamaki mahsulotlarining tarqatilishini hamda iste’mol qilinishini cheklash to‘g‘risida” 2023-yil 24-maydagi O‘RQ-844-son Qonunining ijrosini ta’minlash maqsadida **buyuraman:**

1. O‘zbekiston Respublikasining “Alkogol va tamaki mahsulotlarining tarqatilishini hamda iste’mol qilinishini cheklash to‘g‘risida”gi Qonuni rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin.

2. O‘zbekiston Respublikasining “Alkogol va tamaki mahsulotlarining tarqatilishini hamda iste’mol qilinishini cheklash to‘g‘risida”gi Qonuni ijrosini ta’minlash bo‘yicha vazirlikning ishchi guruhi tarkibi ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Ishchi guruhi (D.Kenjayev)ga:

ta’lim tashkilotlari o‘z vakolatlari doirasida alkogol va tamaki mahsulotlarini iste’mol qilishning salbiy oqibatlari borasida o‘quvchiyoshlar orasida profilaktik ishlar olib borilishini tashkil etish;

ta’lim muassasalari va tashkilotlari hududida tamaki mahsulotlarini iste’mol qilmaslik, ta’lim muassasasi pedagogik jamoasiga o‘quvchilar bilan ishlashda ular ongida alkogol va tamaki mahsulotlarini iste’mol qilishga nisbatan salbiy munosabatni shakllantirish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirish;

alkogol va tamaki mahsulotlarini iste’mol qilishning salbiy oqibati, profilaktikasi masalalari bo‘yicha tegishli tashkilotlar bilan hamkorlikda ta’lim tashkilotlari uchun o‘quv dasturlarini ishlab chiqishda ishtirok etish;

ta’lim muassasalari va tashkilotlari hududidan to‘g‘ri chiziq bo‘ylab yuz metrdan kam masofada joylashgan savdo obyektlarida (bundan savdo obyekti umumiy savdo maydoni ming kvadrat metrdan ortiq bo‘lgan savdo majmualarining, bozorlarning hududida va yarmarka pavilonlarida joylashgan hollar mustasno) alkogol va tamaki mahsulotlari savdosiga umuman yo‘l qo‘ymaslik choralarini ko‘rish masalalari ustidan nazorat o‘rnatishni amalga oshirish;

mazkur masalada xalqaro hamkorlikni amalga oshirish, o‘quvchilar orasida alkogol va tamaki mahsulotlarini iste’mol qilishning oldini

olish borasida Birlashgan Millatlar Tashkilotining UNICEF va UNESKO hamda boshqa mutasaddi xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikda ish olib borish vazifasi yuklatilsin.

4. Qoraqalpog‘iston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vaziri, Toshkent shahar va viloyatlar maktabgacha va maktab ta’limi boshqarmalari boshliqlari, tuman (shahar) maktabgacha va maktab ta’limi bo‘limlari rahbarlariga:

O‘zbekiston Respublikasining “Alkogol va tamaki mahsulotlarining tarqatilishini hamda iste’mol qilinishini cheklash to‘g‘risida”gi Qonuni mazmun-mohiyati bilan barcha xodimlarni tanishtirish;

umumiy o‘rta ta’lim muassasalari, maktabgacha ta’lim tashkilotlari, Barkamol avlod bolalar maktabi hududidan to‘g‘ri chiziq bo‘ylab yuz metrdan kam masofada joylashgan savdo obyektlarida alkagol va tamaki mahsulotlari savdosiga umuman yo‘l qo‘ymaslik choralarini ko‘rish;

ta’lim muassasalari va tashkilotlarida alkogol va tamaki mahsulotlarini iste’mol qilishga umuman yo‘l qo‘ymaslik va uning salbiy oqibatlari borasida o‘quvchi-yoshlar orasida profilaktik ishlarni olib borish;

ta’lim muassasalari va tashkilotlari pedagogik jamoasi tomonidan o‘quvchilar ongida alkogol va tamaki mahsulotini iste’mol qilishga nisbatan salbiy munosabatni shakllantirish bo‘yicha tushuntirish ishlarini olib borish va doimiy ravishda profilaktik tadbirlar o‘tkazish vazifalar yuklatilsin.

5. Ushbu buyruqning bajarilishini nazorat qilish vazir o‘rinbosari D.Kenjayev zimmasiga yuklatilsin.

Vazir **X. Umarova**

Toshkent sh,
2023-yil 1-iyundagi,
144-son

Bosh muharrir:
Mahmudov Sarvar Yuldashevich

Mas'ul kotib:
Suyarova Lutfiya Muxiddinovna

Bosh dizayner – badiiy muharrir:
Mamasoliyev Akbarali Hamzayevich

TAHRIR HAY'ATI:
Xilola UMAROVA, Risboy JO'RAYEV, Komiljon MUQIMOV, Ulug'bek INOYATOV, G'ayrat SHOUMAROV, Maqsudjon YULDASHEV, Oynisa MUSURMONOVA, Lola MO'MINOVA, Dilyara SHARIPOVA, Barno ABDULLAYEVA, Rohatoy SAFAROVA, Xolboy IBRAGIMOV, Ravil IS'YANOV, Mirodiljon BARATOV, Shaxnoza XALILOVA, Sharibboy ERGASHEV, Yashin ISMANDIYAROV, Alisher UMAROV, Muhabbat MIRSALIYEVA, Bahodir MA'MUROV, Shukurullo MARDONOV, Ulfat MAHKAMOV, Muhayyo UMARALIYEVA.

JAMOATCHILIK KENGASHI:
Dilshod KENJAYEV, Sobitxon TURG'UNOV, Nargiza RAXMANKULOVA, Abduhalim MAHMUDOV, Kamola RISKULOVA, Feruza QODIROVA, Islom ZOKIROV, Ravshan ABDUXAIROV.

Tahririyat manzili:
Toshkent shahar Shayxontohur tumani Navoiy ko'chasi 30-uy.
E-mail: xalq_talimi@xtv.uz Tel: (0 371) 231-16-51, Faks: (0 371) 231-16-52

Jurnal O'zMAA tomonidan 2015-yil 3-iyunda ro'yxatga olinib, 0852-raqamli guvohnoma berilgan.

Buyruq va ularning ilovalari to'liq, o'zgartirishsiz chop etilmoqda. Jurnal tahririyatning kompyuter bo'limida terilib, sahifalandi.

"Sano-standart" MCHJ bosmaxonasida chop etildi.
Toshkent shahri, Olmazor tumani Shiroq ko'chasi, 100-uy.

Bosishga ruxsat etildi: 00. 00. 2020-y. Qog'oz bichimi 84x108 $^{1}/_{32}$.
Ofset bosma usuli. Shartli b.t. 7,0. Adadi ------ nusxa.
-buyurtma.
Bahosi kelishilgan narxda.

Ushbu songa mas'ul – Suyarova Lutfiya Muxiddinovna

© "Xalq ta'limi axborotnomasi", 2023.